

ISSN: 2181-3558

«SCIENCE AND RESEARCH»

# JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION  
AND RESEARCH

---

INTEGRATSIYALASHGAN

TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF  
INTEGRATED  
EDUCATION AND  
RESEARCH**

**ISSN 2181-3558**

**VOLUME 2, ISSUE 11**

**COLLECTION B**

**NOVEMBER 2023**



*Tahririyat a'zolari*  
*Editorial board*

*Berdialiev A. f.f.d., prof.*  
*Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.*  
*Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.*  
*Babadjanova D. tarix.f.d., prof.*  
*Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.*  
*Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.*  
*Madumarov T.T. yur.f.d., prof.*  
*Mirzayeva S.R. fil.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.*  
*Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.*  
*Salayeva M.S. ped.f.d., prof.*  
*Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent*  
*Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent*  
*Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent*  
*Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent*  
*Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent*

*Achilov N.K. fil.f.d., dotsent*  
*Imomova G.M. fil.f.n., dotsent*  
*Zakirova H.R. f.f.n., dotsent*  
*Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik*  
*Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent*  
*Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent*  
*Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent*  
*Djuraeva M.Y. f.f.f.d.*  
*Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent*  
*Otadjanova M.O. f.f.d.*  
*Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Hasanov A.M. fil.f.f.d.*  
*Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent*  
*Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent*  
*Safarova U.A. fil.f.d., dotsent*  
*Dexqonova M.Sh. f.f.d.*  
*Hasanov A.M. fil.f.d.*

*Mas'ul kotib: M.Yusupov*

## DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY FOR CLEANING WASTEWATER GENERATED IN CAR WASHING POTS AND RECYCLING IT IN THE CAR WASHING PROCESS

*A.G. Askarova, S.I. Nazarov, H.Q. Razzokov*

*[Gulchiroyaskarova16@gmail.com](mailto:Gulchiroyaskarova16@gmail.com), [s.i.nazarov@buxdu.uz](mailto:s.i.nazarov@buxdu.uz)*

*Bukhara State University, 200117, M.Ikbol str., 11, Bukhara, Uzbekistan*

**Abstract.** In this article, the development of the technology for the treatment of wastewater generated in car washes and its reuse in the process of car washing, the chemical analysis of the composition of wastewater methods are presented.

**Key words:** coagulant, amount of dry residue, electrical conductivity, technology, surfactant, wastewater.

Today, the constant increase in the number of car washes leads to aggravation of the environmental situation, as untreated wastewater is discharged into sewers, often on the ground, and even into fishing and drinking water bodies. The amount of such waste water from a car wash is usually from 1 to 3 m<sup>3</sup> per hour. Wastewater generated in car washes is mainly contaminated with suspended solids and petroleum products, their amount reaches 2000 mg/l.[1-4]

The permissible concentration of these pollutants when dumping waste into wastewater is 15 mg/l and 0.3 mg/l, respectively, for industrial sewage, when it is discharged to the surface - 10 mg/l and 0.1 mg/l, and when it is dumped into a fishery reservoir, 3 -5 mg/l and 0.05 mg/l. At the same time, the amount of suspended matter in process water intended for car washing is up to 70 mg/l, oil products are up to 20 mg/l, and for car washing - 40 mg/l and 15 mg/l, respectively. The design of wastewater treatment and circulating water supply system is important.[5-12]

One of the urgent problems of today is the development of technology for the treatment of wastewater generated during car washing.

This technology includes various methods of physico-chemical treatment of wastewater (sedimentation, flotation and filtration through various porous filter materials), which significantly reduces costs.

Taking into account the growing need for the creation of small-sized, inexpensive and high-efficiency devices for the treatment of waste water from car washes, the Water Supply Department of Bukhara Region and the scientific research laboratory of Bukhara State University on the creation of a wastewater treatment device experimental studies were conducted. The proposed device includes:

- a filter to separate coarse solid mixtures from water;
- colloid particles and separation of petroleum products;
- non-pressure flotation device for cleaning water from surfactants;
- a dsorbent column.

The wastewater treated by this scheme contains 12-15 mg/l of suspended solids and 4.5-5 mg/l of oil products, which allows them to be reused in the car

washing process. Floating oil products are collected in an intermediate tank and periodically transported to asphalt plants.

Wastewater produced in car washes is a mixture of various substances and forms a complex system: Dissolved inorganic and organic compounds, suspended coarse dispersed and colloidal compounds. Chemicals used in car washing are washed off with water, a certain part of which dissolves in water and forms a colloidal solution. Wastewater collected in tributaries contains surface active substances (SFM), petroleum products. These substances cannot be released directly into nature. If the coagulants offered by us are used to remove and neutralize the above substances from the water, which pose a threat to flora and fauna, the water will be purified and neutralized to a technical level. Drinking and technical water will be saved by purifying the wastewater from car washes to the level of technical water and sending it back to the car washing process. Up to 90% of the wastewater generated by the proposed wastewater treatment technology can be reused as technical water. will be carried out.

Table 2

*Effluent from car washes used for cleaning water sample readings*

Analysis example	Clarity	Dry residual mg/l	pH	comparison electricity conductivity Ch mKCm /cm	TDS mg/l	SAL	General hardness
A drink water	Clear	1000	7	30.99	15.75	0.02	7
Er under water	Clear	1050	7	4700	2100	2.5	16.5
Coming out of car washes	Dim	2200	6.5	4598	2442	2.47	20.7

Table 2

*From cleaning after studied effluent from car washes water of samples indicators*

Analysis example	Clarity	pH	Dry residual mg/l	comparison electricity conductivity Ch mKCm /cm	TDS mg/l	SAL	General hardness
A drink water	Clear	7	1000	30.99	15.75	0.02	7
Er under water	Clear	7	1050	4700	2100	2.5	16.5
Coming out of car washes	Clear	7.5	8 21	1 584	1 678	1 . 0 4	1 0

Based on laboratory tests, the composition of the water before and after washing the cars was fully analyzed. The results of the analysis show that when synthetic coagulants are added to the wastewater from the car wash, the pH,

hardness, amount of dry residue, color, smell, properties such as electrical conductivity are equal to the parameters of drinking water. This indicates that the water purified in this way can be reused directly in the process of washing cars. At the same time, purified water can be used for greening the environment.

One of the important problems is to detoxify the waste water produced during the car washing process, to reduce its impact on the natural ecology, and to use the proposed method to pass the waste water through the treatment facilities and bring the content to the level of technical water and use it in the car washing process.

Based on experimental tests, it was scientifically proven that the content and parameters of the purified wastewater meet the requirements for technical water and that it does not affect the spare parts and color of the car when it is used in car washing.

Car wash stations connected to the drinking water network, the amount of water used to wash 1 light car is 50 liters, if an average of 100 cars are washed in the car wash stations per day. The volume of consumed drinking water for 1 year is 1825 m<sup>3</sup>, and the price of consumed drinking water is 13,687,500 soums. In the proposed method, 11,414,000 soums of economic efficiency will be achieved due to sending the used wastewater to the car washing process after cleaning it with chemical reagents, i.e. coagulants. The cost of the spent coagulant is 273,500 soums.

### Reference

1. Chensky I. A. Methods of waste water treatment / I. A. Chensky, S. S. Rybnikov - Cheboksary: Interactive Plus, 2016. - 92 p.
2. Dautova S.N. Wastewater treatment of car washes with recycled water supply. – Yoshkar-Ola: Colloquium, 2013. – 25 p.
3. Andreeva T. Yu. Purification of car wash wastewater from petroleum products / T. Yu. Andreeva [etc.]. – Omsk: Omskblankizdat, 2018 – 8 p.
4. Gvozdev V.D. Treatment of industrial wastewater and disposal of sludge / V.D. Gvozdev, B.S. Ksenofontova. – M.: Chemistry, 1988. – 112 p.
5. Tashlykova A. N. Purification of oil-containing wastewater by filtration / A. N. Tashlykova [etc.]. – Omsk: Omsk State. tech. University, 2018. – 200 p.
6. Molokanov D.A. An integrated approach to wastewater treatment // Ecology of production. - 2011. - No. 5.- P. 79-81.
7. Kuznetsov Yu.N. New technology for industrial wastewater treatment // Energy: economics, technology, ecology. - 2008. - No. 1.- P. 52-62.
8. Amonova MM, Ravshanov KA Polymeric composition for purification of wastewater from various impurities in textile industry // Journal of chemistry and chemical technology. Moscow. - 2019. - No. 10. Vol. 62. - No. 10. – P. 147 - 153.
9. Amonova M. \_ M. \_ About features comprehensive cleaning sewage water textile enterprises // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. Volume :10. No.11.2022 . -P . \_ 65-71.

**БУЮК ИПАК ЙЎЛИ ТРАНСКОММУНИКАЦИЯЛАРИНИНГ  
РИВОЖИ - МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИНИНГ  
ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТ ОМИЛИ**

*Мирзаева Моҳира Қурбановна*  
*Самарқанд давлат университети*  
*(Самарқанд, Ўзбекистон)*  
*E-mail: mohira7450@gmail.com*

**Аннотация.** Мақолада шарқ мутафаккир алломалари илмий меросининг ипак йўли мамлакатлари ижтимоий тараққиёти ва дунё илму фанига қўшган ҳиссаси илмий фалсафий таҳлил қилиниб, жаҳон тамаддуни ривожидида ипак йўлининг роли очиқ берилди. Бундан ташқари Ўзбекистон ижтимоий тараққиётида ипак йўли транскоммуникацияси ва ахборотлашув асосий ривожлантирувчи куч сифатида таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** Буюк ипак йўли, шарқ, ғарб, илм-фан, дин, маънавият, мутафаккир олимлар, ижтимоий-маданий алоқалар, тараққиёт, Байтул ҳикма, инсон маънавий камолоти.

**Аннотация.** В статье рассматривается вклад восточных мыслителей в духовное развитие стран Шелкового пути. И научно исследуются роль великого шёлкового пути на мировую цивилизацию. А также анализируется место и роль коммуникации и информации как движущая сила в социальном развитии Узбекистана.

**Ключевые слова:** Великий шелковый путь, восток, запад, наука, религия, духовность, мыслителей, социально-культурные отношения, развитие, “Байтул хикма” гармонично развитое человек.

**Annotation.** This article is revealed the social and philosophical analysis of the influences of Eastern thinkers of the Great Silk Road on world science and social development, and is scientifically investigated the role of the Great Silk Road on world civilization. It also analyzes the place and role of communication and information as a driving force in the social development of Uzbekistan.

**Keywords:** The Great Silk Road, east, west, science, religion, spirituality, thinkers, socio-cultural relations, development, “Baitul hikma”, harmoniously developed person

Дунё халқлари ижтимоий маънавий тараққиёти ва интеграциялашуви жараёни «Буюк Ипак йўли» аъналарининг ривожланиши билан боғлиқ бўлиб, жаҳон иқтисодий маданияти тизимида муносиб ўринга эгадир.

Дарҳақиқат Шарқ билан Ғарбни боғлаб турган «Ипак йўли» Ўзбекистон ҳудуди орқали ўтиб, бу ерда савдо йўллари туташган, ташқи алоқалар ва турли маданиятлар бир-бирини бойитган. Бугунги кунда ҳам Европа ва Осиёни боғлайдиган бу йўллар мамлакатимиз, қолаверса Марказий Осиё мамлакатларининг ижтимоий маънавий алоқаларида янада такомиллашиб, аҳамияти ошиб бормокда.

Тарихий ҳақиқат шуни кўрсатадики ижтимоий-манавий алоқаларнинг юксалишида илм-фан, диний, исломий кадриятлар – Қуръони карим, ҳадислар ва шариатнинг асоси - фикҳнинг ўрни беқиёс бўлиб, комил инсон тарбиясида, адолат мезонини ўрнатишда, инсонпарварлик, бағрикенглик, ватанпарварлик, инсонлар ўртасида ҳурмат-эҳтиром, ҳамжиҳатликка даъват этувчи ғоялар ва анъаналарнинг ёйилишида долзарб аҳамият касб этиб келди. Бу ғоя ва анъаналар эса ипак йўли халқлари орасида Имом Исмоил Бухорий, Ҳаким ат-Термизий, фақиҳ Бурҳониддин Марғинонийларнинг хизмати туфайли ёйилди.

Шу боис, ҳозир Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий соҳалар билан бир қаторда илму фан, диний, маънавий меросимизни ўрганиш учун ҳам катта имконият яратилиб, тарихий, цивилизациян ўзгариш ва янгиланишларни очиб берди. Илму фан, диний, миллий кадриятлар тарихий хотирани тиклаш ва мустаҳкамлаш, ижтимоий, маърифий юксалиш учун хизмат қилиб, бу жараёнда уйғониш даври мутафаккирлари қолдирган илмий, фалсафий мероснинг ўрни беқиёсдир. Бу ҳақда Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев шундай дейди. “Ҳақиқатдан ҳам, азалдан турли савдо йўллари, маданият ва цивилизациялар чорраҳасида жойлашган ... Бу қутлуғ заминдан етишиб чиққан Имом Бухорий, Абу Али Ибн Сино, Абдуҳолик Ғиждувоний, Мирсаид Кулол, Хўжа Ориф Ревгарий, Баҳоуддин Нақшбанд каби буюк мутафаккирларнинг номлари, уларнинг бой мероси бутун шарқ ва ғарб оламида машҳурдир. ...Биз мана шундай улуғ алломаларимиз билан, уларни камолга етказган она заминимиз билан ҳар қанча фахрлансак арзийди. Дарҳақиқат, ўтмишда қанча-қанча синов ва қийинчиликларга дуч келмасин, илм-маърифат, маданият ва санъат дарёси ҳеч қачон тўхтаган эмас. Кўплаб маърифат фидойиларининг ибратли ҳаёти бугунги кунда ҳам юртимизда янги жамият барпо этиш, баркамол авлодни тарбиялаш, маънавиятимизни юксалтиришда бизга беқиёс куч бағишлаб келмоқда”[3, Б.145, 146].

Ҳозирда энг муҳим вазифа шундан иборатки, ўзлимизни теран англаб, мутафаккир боболаримиз, азиз авлиёларимиз қолдирган бебаҳо меросни асраб-авайлаб, янада бойитишимиз, улуғ аждодларимиз ишининг муносиб давомчилари бўлмоғимиз лозимдир. Чунки, уйғониш даври мутафаккирлари ўз даврлари учунгина эмас, балки келгуси авлодлар, келажак замон ва даврлар учун ҳам маънавий куч-қувват манбаи, бебаҳо мерос қолдириб, Абу Наср Форобийнинг фалсафага доир, ал-Хоразмийнинг ҳисоб илмига доир, Абу Али ибн Синонинг тиббиёт илмига доир, Абу Райхон Берунийнинг аниқ фанлар ва тарихга доир, Алишер Навоийнинг адабиётга доир ва яна кўплаб олиму фозил аждодларимизнинг илмий, фалсафий мерослари ўз даврларидан кейин ҳам дунё халқларига йўл кўрсатиб келаётганлигини бутун жаҳон жамоатчилиги эътироф этиб келмоқда.

Бундан ташқари Қуръон, ҳадис ва шариат аҳкомлари ўзининг инсонпарварлик, адолатпарварлик, маърифатпарварлик ва ҳар бир мўмин-мусулмон инсофли, диёнатли бўлиши, бировнинг ҳақиқага хиёнат қилмаслиги, ватанни ҳимоя қилиши зарурлиги каби юксак ахлоқийликка даъват этувчи



ғоялари билан дунё халқлари маънавий ҳаётини юксалтириб, ҳозирда ҳам барқарорликни таъминлашга хизмат қилмоқда.

Дарҳақиқат мамлакат Президенти Ш.М.Мирзиёев бу ҳақда шундай дейди. “Ҳозирги кунда Ўзбекистонимизнинг китоб фондларида 100 мингдан зиёд қўлёзма асарлар сақланмоқда. ... Ушбу ноёб асарларда бугунги давр ўртага қўяётган жуда кўп долзарб муаммоларга жавоб топиш мумкин. Хусусан, ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини чуқур очиб берадиган, барча одамларни эзгулик, меҳр оқибат ва ҳамжихатлик йўлида бирлашишга даъват этадиган теран маъноли фикр ва ғоялар бугун ҳам ўз қиммати ва аҳамиятини йўқотган эмас. Лекин биз ана шундай ноёб мерос ворислари, шундай бойлик эгалари бўла туриб, уларни ҳар томонлама ўқиб – ўрганиш, халқимиз, аввало, униб-ўсиб келаётган ёшларимизга, жаҳон ҳамжамиятига етказиш бўйича етарли иш қилмаганимизни ҳам очиқ тан олиш керак” [4, Б.2].

Ўтмишга назар ташлайдиган бўлсак, милоднинг юз йилликлари бошларида ипак йўли мамлакатлари яъни, Кушон подшолиги, сўнг Эфталитлар давлати ва Турк ҳоконлиги даврларида ҳам Хоразм воҳасида, Сўғдиёнада (Самарқанд, Бухоро, Қарши), Уструшонада (Сирдарё, Жиззах), Чоч (Тошкент ва унинг атрофи), Фарғона вилоятларида, Чоғаниёнда (Термиз, Денов) моддий ва маданий алоқалар тараққий этди ва уйғониш даврида диний эътиқодлар ўзаро муросада бўлиб, халқлар ҳаёти, мамлакат осойишталигида муҳим ўрин тутди. Шу билан биргаликда табиий фанлар ва атроф-муҳитни англашга, мавжудотни кенгроқ билишга интилиш кучайиб, хусусан, ўша пайтларда Сўғд тақвимлари тузилди ва ҳозирги Тўрткул худудида эса расадхона очилди.

Кўриниб турибдики, мамлакатимизда қадимдан цивилизация асослари, моддий ва маънавий маданиятнинг чуқур илдизлари мавжуд бўлиб, ипак йўли алоқалари таъсирида илм-фан, дин тизимли равишда ривожланди, маданий-маърифий соҳаларда ижобий ўзгаришлар юз берди. IX аср бошларига келиб (832 йили) Бағдодда "Байтул-ҳикма" ("Донишмандлар уйи") ташкил этилди, унинг эҳтиёжи учун катта маблағ ажратилди. Байтул-ҳикма қошида иккита расадхона, илмий марказ ташкил этилиб, дунёнинг турли ерларида ёзилган илму фанга оид адабиётлар тўпланди, юнонча, лотинча, хиндча, хитойча, форсча ва бошқа тиллардан арабчага таржима қилиниб, ўрганилди. Хусусан, марказий осийлик олимлар бу марказда садоқат билан илм-фан ривожига ўз ҳиссаларини қўшиб, сомонийлар вазири Абу Фазл Балъамий ва Абдуллолар уларга бевосита ҳомийлик қилдилар, Хоразмшоҳ Абул Аббос Маъмун ва Абулхусайн томонидан ташкил этилган «Донишмандлар уйи» ("Мажлиси уламо") да Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Абу Саҳл Масиҳий, Абу Наср ибн Ироқ, Абу Саид ибн Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Мискавайх, Абул Хайр Ҳаммор, Абу Мансур ас-Саолибий, Аҳмад Муҳаммад ас-Саҳрий, Абу Муҳаммад Ибн Хидр ал-Хўжандий, Зайнуддин Журжоний, Абулкарим Зирғалий, Абу Абдуллоҳ ал-Вазир, Абул Ҳасан Маъмун, Абу Муҳаммад Хоразмий, Абдуаввал ибн Абдусамадий, Абу

Азоқ ибн Бахном, ал-Косий, Абу Абдуллоҳ Илоқий, Абусаид Шабибий, Абу Абдулла ал-Бий ан-Найсабурий, ал-Хорожий, ал-Ҳамдакий, Аҳмад Маъсурий, Абу Муҳаммад Раккоший, Абу Абдуллоҳ Ибн Ҳомид Хоразмий, Абубакр Муҳаммад Хоразмий, Қамарий, Аҳмад ибн Муҳаммад ас-Сухайлий ал-Хоразмий ва бошқа олимлар ижод қилдилар. Улар математика, астрономия, руҳият, алкимё, мантиқ, тиббиёт, фалсафа, тарих, тилшунослик, таълим-тарбия, адабиёт, мусиқа, география, геодезия, топография, механика сингари турли фан соҳалари билан шуғулланиб, жаҳон илму фани ривожига замин яратдилар.

X-XI асрларда минтақада кўп бунёдкорлик ишлари амалга оширилди. Янги мадрасалар, саройлар, масжидлар, мақбаралар ва бошқа ноёб меъморчилик иншоотлари барпо этилди. Бухоро, Самарқанд, Хива, Термиз, Марв, Шош, Хўжанд, Ўш, Андижон, Кеш, Кармана, Марғилон, Панжикент каби шаҳарларда турли илм масканлари вужудга келди.

Аслида, бундай илмий маданий ва маънавий юксалиш ўрта асрлар учун кутилмаган, шу билан бирга дунёни ҳайратда қолдирган ҳолат бўлиб, шунинг учун ҳам уйғониш, илк ренессанс деб тарихга кирди.

Бундай тараққиётнинг сарварлари Мусо ал-Хоразмий (783-850) ва Аҳмад ал-Фарғоний (798-865) математика, астрономия, география фанларини чуқур ўрганиб, бу соҳада кўплаб янгиликлар яратдилар. Хусусан, ҳозирги "алгебра", "алгоритм" сўзлари Ал-Хоразмий номи билан бевосита боғлиқдир.

Бундан ташқари Ал-Фарғоний дастлабки Ер шари харитасини тузган олимлардан бири бўлиб, ер меридиани бир даражасининг узунлигини улчаш, Нил дарёси суви сатҳини белгиловчи асбобни яратиш каби кашфиётлари билан жаҳонга машҳур бўлди. Олим йилнинг ёзда энг узун куни (22 июнь), қишда энг қисқа куни (23 декабрь), туну куннинг тенглиги-21 март ва 23 сентябрга тўғри келишини аниқлаб берди.

Дарҳақиқат ватандош алломаларимизнинг аксарият кўпчилиги қомусий олимлар бўлиб, X аср алломаси Абу Абдулло ал-Хоразмий (Мусо ал-Хоразмий билан адаштирмайлик) ўзининг "Илмлар қалитлари" номли асарида ўша пайтда маълум бўлган элликка яқин илмлар таснифини, яъни классификациясини шарҳлаб берди. Табобат ва доришунослик борасида эса машҳур Ибн Синодан ташқари Ал-Кумрий, Абу Мансур Камарий, Шарафутдин ал-Ироқий, Исмоил Журжоний каби олимлар салмоқли меҳнат қилдилар.

Кимё фани равнақида Абу Бакр ар-Розий, Абул Ҳаким ал-Косий, геометрия ва тригонометрия ривожига Маҳмуд Чағминий, Шамсутдин Аълоул Бухорий, фалсафада Ибн Мискавайх каби донишларнинг ҳиссалари катта бўлди. Файласуф ва табиий фанлар билимдони Ал-Фаробий мусиқа ҳақида ҳам асарлар ёзиб, унинг ноталар хусусидаги китоблари ўрта асрлардаёқ лотин, иврит (қадимги яҳудий) ва бошқа тилларга таржима этилди. Фаҳриддин Розий фалсафа, мантиқ, ҳуқуқшунослик, соҳаларида 150 дан ортиқ илмий рисоалар ёзиб қолдирди.

Минтақамизда мавжуд бўлган кўп тиллилик (турк, форс, араб) бу давр маданиятининг муҳим хусусиятларидан бири бўлиб, донишмандларимиз бошқа хорижий тилларни ҳам яхши билганлар. Масалан, буюк астроном математик, геодезия, геология, минералогия, тарих фанларининг билимдони Ал-Беруний 7-8 тилни мукамал билган. Хусусан, у Греция олимлари Эвклиднинг "Негизлар" ва Птолемейнинг "Альмагест" асарларини юнончадан, ўзи яратган "Устурлобия" китобини арабчадан санскрит тилига (қадимги ҳинд тилига) таржима қилганлиги тарихдан маълум.

Бундан ташқари аждодларимиз ақлни пешлашда шахмат ўйинининг аҳамиятини яхши билганлар. У пайтларда 100 катакли шахмат ўйини нуфузли ҳисобланиб, Абубакр ас-Сули X асрда энг кучли шахмат устаси бўлган. Абулфатх Ахмад эса XI асрда шахмат буйича қўлланма ёзган ва бу рисола бир неча асрлар давомида фойдаланилган. Фирдавсийнинг "Шоҳнома"асарида шахмат ўйини маҳорат билан ифодалангани бежиз эмас.

Дарҳақиқат IX-XII асрларда тарих, тилшунослик, бадиий санъат каби фанлар равнақи салмоқли бўлиб, Абу Бакр Наршахийнинг "Бухоро тарихи" Ал-Мустағфирийнинг "Насаф ва Кеш тарихи", Байҳақийнинг "Маъсудий тарихи" асарлари дунёга танилди. Шу даврда яна Хоразм, Самарқанд, Шош, Термиз, Чоғаниён ўтмишига оид тарихий рисолалар яратилиб, хусусан, "Бухоро тарихи" турли француз, рус, инглиз, араб, форс ва ҳозирги ўзбек тилларида бир неча бор чоп этилди.

Ушбу даврда туркий тилларга эътибор ҳам кучайиб, VIII-IX асрлар оралиғида ижод этган Ахмад Югнакий "Ҳақиқатлар тухфаси" достонини яратди. Бизгача етиб келган ушбу асар гувоҳлик берадики, унинг муаллифи салоҳиятли шоир ва ахлоқ муаллими бўлиб, у асар 14 бобдан иборат ва унда маънавий-ахлоқий камолот сирлари жамланган. Достоннинг биринчи боби бежизга "Илм манфаати ва жаҳолатнинг зарари ҳақида" деб номланмаган.

Бундан ташқари бу даврларда яна туркийшунос олим Маҳмуд Қошғарий "Туркий тилларнинг синтаксис қоидалари"ни ёзиб, «Девону луғатит турк» асарини яратди. Унда муаллиф 7,5 мингдан ортиқ туркий сузлар изоҳлари, грамматик ва дидактик хусусиятлари, шевалари тўғрисида маълумот берди. Шу билан бирга Юсуф Хос Ҳожибнинг "Саодатга бошловчи билим" китоби ҳам ўзбек адабий тилининг шаклланишида катта ўрин тутди.

IX-XII асрларда дунёвий илму фан ва маданият билан бир қаторда ислом мазмунини англаш, унинг моҳиятини ўрганиб, бошқа мамлакатларга ёйиш ҳам масъулиятли иш бўлиб бунда Имом ал-Бухорий (810-870) ва Абу Исо Муҳаммад ат-Термизий (824-892)лар ташаббускор бўлдилар. Улар ислом дунёсида вужудга келган минглаб ҳадисларни синчиклаб ўргандилар, холис ва ишонарлиларини ажратиб, уларга шарҳлар бердилар. Улар Муҳаммад (с.а.в.) пайғамбарнинг ҳаёти ва фаолияти шунингдек унинг диний ва ахлоқий кўрсатмаларига оид асарлар ёздилар. Бу зотлар машаққатли ижодлари ва амалий ишларида мусулмончиликнинг асл маъносини маҳорат билан очиб бериб, исломнинг илму фан, маданиятга ва умуман тараққиётга бўлган таъсирини кўрсатиб бердилар. Улар исломнинг инсонпарварлик

хусусиятларини таъкидлаб, унинг кўпчилик манфаатини кўзлайдиган демократик эътиқод эканлигини ёритиб бердилар.

Зеро бу ҳақда Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев “Маълумки, минтақамиз, авваламбор, бугунги Ўзбекистон замини ислом илм-фани ва маданиятининг қадимий бешикларидан ҳисобланади. Халқимизнинг ана шундай бой тарихий, илмий, маънавий меросини ҳар томонлама ўрганиш, жаҳон афкор оммасига кенг таништириш, энг муҳими, ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини чуқур очиб бериш мақсадида биз азим пойтахтимиз Тошкент шаҳрида Ўзбекистондаги Ислом маданияти марказини барпо этишга қарор қилдик. Нега деганда, “Жаҳолатга қарши - маърифат” шиори остида мана шундай марказни ташкил этишни бугун даврнинг ўзи тақозо этмоқда” [5, Б.468, 469]. – дейди.

Дарҳақиқат Ал-Бухорий ва Ат-Термизийнинг садоқатли издошлари Абдурахмон ан-Насоий, Абу Мансур ал-Мотуридий, Қафқол аш-Шоший, Маҳмуд аз-Замахшарий, Абу Исо Самарқандий, Нажмиддин Кубро каби уламолар мусулмон дунёсининг йирик мутафаккирлари сифатида кўпчиликка машҳур бўлдилар. Хусусан, шайх Ал-Мотуридий таълимотига кўра, билишнинг уч манбаи мавжуд бўлиб, улар ҳис (сезги), нақл-ривоят ва ақл-идрокдир. Шу билан бирга ул зот ақл-идрокнинг алоҳида ўрни борлигини таъкидлаб, демак, ақлий далиллар ва исботлар асосида воқеликни англамоқ мусулмончиликда энг муҳим амал деб билдилар.

Бундан ташқари Ҳазрати имом Аш-Шоший ҳалоллик, одиллик масалаларини ўз асарларида кенг ёритиб, шариат қонун-қоидаларини чуқур таҳлил этди. "Ҳидоя" асарини яратган Бурҳониддин Марғиновичнинг мулоҳаза ва тавсиялари эса ислом дунёсида кўп асрлар давомида муҳим манба бўлиб, у ёки бу масалани адолат ва инсоф нуқтаи назаридан ҳал этишда асосий қўлланма вазифасини бажариб келди. Имом ал-Бухорийнинг "Ал-жомеъ ас-саҳиҳ" "Ал-адаб ал-муфррад", "Ат-тарих ас-сиғар" каби асарлари ислом тарихидаги муҳим манбалар бўлиб, Ал-Бухорийнинг "Жомеъ ат-таворих" асари кичик тарих, ўртача тарих ва катта тарих деб номланувчи уч қисмдан иборатдир. Исмойил Бухорийнинг 1974 йилда топилган "Кичик тарих" ва "Ўртача тарих" китоблари Самарқанд давлат университетининг шарқ қўлғамалари фондида сақланмоқда.

Бундан ташқари ислом дини ва унинг доирасида, Қуръон, ҳадис талабларига мос равишда пайдо бўлган тасаввуф таълимоти XI асрга келиб кенг тарқала бошлади. Юртимизда эса сўфийлик асосларини Юсуф Ҳамадоний, Абдулҳолиқ Гиждувоний, Аҳмад Яссавий, Сулаймон Боқирғонийлар тарғиб этиб, ривожлантирдилар. Хоразмда Кубравия биродарлиги, Бухорода Нақшбанд тариқатлари шаклланиб, уларнинг барчаси ўша даврда ислом маданияти ва маънавияти асосларининг ривожини, одамларнинг иймонли бўлишида муҳим ўрин тутди. Бу иймон-эътиқод эса асрлар давомида синовдан ўтиб, ҳамон одамларни камтарликка мўминликка, ҳалолликка, бағрикенгликка, инсофу-виждонли бўлишга даъват этиб келмоқда.

Демак, бир давр ва маконда ҳам дунёвий, ҳам диний билимлар ривожланиб, улар бир-бири билан зиддиятда бормади. Фарб мамлакатларида деярли етти аср давомида инквизиция (зулмат) ҳукм сурган бир вақтда, мусулмон юртларида, хусусан Марказий Осиёда, маънавий-маърифий тараққиёт юз берди ва юксалди. Бу ҳолатнинг асосий сабаблари эса илму фан, исломнинг ривожиди эди. Ўша вақтда дунёвий илм аҳли исломни инкор этмай, балки кўп жиҳатдан унга таянди, мусулмончиликнинг ахлоқий, маънавий сифатлари эса уларга мадад бағишлади. Мамлакатимиздаги юксалишнинг энг муҳим хислати инсонпарварлик бўлиб, бу давр илму фани ва маданиятининг марказида инсон, инсоний ақл, ҳис-туйғу, инсон маънавий бойлигини эъзозлаш, уни юксалтириш бўлди.

Бу ҳақда Ўзбекистон президенти Ш.М.Мирзиёев “..қадимий маданият ва цивилизациялар чорраҳаси бўлган юртимиз заминидан ўрта асрларда минглаб олиму уламолар, буюк мутафаккир ва шоирлар, азиз-авлиёлар етишиб чиққан. Уларнинг аниқ фанлар ва диний илмлар соҳасида қолдирган бебаҳо мероси, бутун инсониятнинг маънавий мулки ҳисобланади” [4, Б.2]. – деб таъкидлайди.

Дарҳақиқат ўрта аср олимлари ислом динининг бешта фарзидан биринчиси, «эзгулик ва ҳақиқат тимсоли бўлган яратувчи зот – Аллоҳга тил ва дил бирлигида ихлос қўйиб ишониш, эътиқод яъни Қуръони каримнинг «Иймон» калимаси ва «Ихлос» сурасини дилга жо қилишни мусулмончиликнинг ибтидоси» -деб билдилар. Балким халқимиз асрлар давомида мустамлака, ҳар қандай зулм, истибдодларга қарамасдан ўзлигини, маданиятини, иймон-эътиқодини сақлаб қолганлиги ҳам шу муқаддас ислом динининг таъсиридандир. Бу ҳақда И.А.Каримов «Айниқса кўп асрлар мобайнида, халқимиз қалбидан чуқур жой олиб, ҳаёт маъносини англаш, миллий маданиятимиз ва турмуш тарзимизни, қадриятларимиз, урф-одат ва анъаналаримизни безавол сақлашда муқаддас динимиз қудратли омил бўлиб келаётганини алоҳида таъкидлаш жоиз. Нега деганда, инсонийлик, меҳр-оқибат, ҳалоллик, охиратни уйлаб яшаш, яхшилик, меҳр-шафқат сингари халқимизга мансуб бўлган фазилатлар айнан ана шу диний заминда илдиз отади ва ривожланади»[1]. - деган эди.

Дарҳақиқат уйғониш даври мутафаккирлари ислом динининг моҳиятини ҳаққонийлик, покликка чорлаб, бинобарин, у ҳамиша кишиларни эзгулик, бағрикенглик ва комиликка бошлаганини ҳам назарий, ҳам амалий нуқтаи назардан изоҳлаб бердилар. Масалан, Исмоил ал-Бухорий ислом дини асрлар давомида юксак маънавият омили бўлиб хизмат қилиб келганлиги ва унинг мавқеи тобора ошиб бораётганини ўша даврдаёқ асослаб берган эди.

Зеро, И.А.Каримов «Имом ал-Бухорий ҳазратлари нафақат ўзбек халқи, балки бутун мусулмон оламининг фахр-ифтихоридир. Ул табаррук зотнинг ҳаёти том маънодаги илмий ва инсоний жасорат, букилмас ирода, сўнмас эътиқод тимсолидир»[2, Б.185].– деб таъкидлаган эди. Шу боис Исмоил ал-Бухорийнинг ҳаёти, фаолияти, у қолдирган маънавий мерос даврлар оша ўз кадру қийматини, ўзининг ибратомуз таъсирини йўқотган эмас.

Шу даврда ижод қилган алломалардан яна бири ат-Табарий бўлиб, унинг машҳур асари "Тарихи ал-Расул вал-мулк" (Пайғамбарлар ва мамлакатлар тарихи) ёки "Таворихи ат-Табари" деб аталади. Табарийнинг бу асарини 963 йилда Балъамий қайта ишлаб форс тилига таржима қилди. Ат-Табарий ўз асарини ёзишда ўзидан аввал ўтган Абул Ҳасан али ибн-Муҳаммад ал-Маданий асаридан кенг фойдаланган ва у араб тарихчиларидан биринчи бўлиб тарихий воқеаларни аниқ тарихий далиллар билан ёзган эди.

Дарҳақиқат буюк ипак йўли мамлакатлари мутафаккирлари яратган илмий асарлар ўша асрлардаёқ араб тили орқали дунёга танилиб, Шарқу Ғарбда ибрат бўлди ва маълум даражада андоза ролини ўйнади. Уларнинг асарлари турли тилларга таржима қилиниб, Франция, Англия, Испания, Италия, Голландия ва бошқа кўп мамлакатларга тарқалди. Масалан, Ибн Синонинг "Тиб қонунлари" Ғарб илм-фан тили бўлган лотин тилида 30 мартадан ортиқ чоп этилди ва лотинчадан Европа ва бошқа китъа халқлари тилларида нашр этилди.

X асрдаёқ Рим папаси Сильвесто II мураккаб рим рақами ўрнига Ал-Хоразмий қайта ишлаб чиққан "араб рақамлари"ни амалиётга киритиш ҳақида фармон берганди. XV асрда Австрия ва Италия университетларида Ал-Фарғонийнинг прономик асарлари бўйича маърузалар қилинганлиги хусусида голландиялик олим Регимонтон хабар беради. Ойнинг янги кашф этилган икки кратерига Ал-Фарғоний ва Мирзо Улуғбек номлари берилганлиги ҳақида 1647 й польшалик Ян Гевелий айтган эди. Мутахассисларнинг таъкидлашларича, Ал-Форобий асаридан ғарбнинг машҳур олимлари Леонардо да Винчи, Бэкон, Коперник, Кеплер, Лейбниц ва бошқалар фойдаланганлар. Алломаларимизни машҳур шоир А. Данте, И.Шиллер тараннум этган, буюк немис файласуфи Г.Гегел аждодларимиз ижодига тан бериб, уларга юксак ҳурмат билдирган эди.

Бугунги кунда ҳам жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида юртимиз донишмандларининг ноёб қўлёзмалари авайлаб сақланмоқда. Масалан, Ал-Хоразмийнинг арифметика хусусидаги рисоласи XII асрда Испанияда лотин тилига таржима қилинган эди. Бу таржиманинг XIV асрда кўчирилган ягона қўлёзмаси ҳозир Англиянинг Кембриж университетида сақланмоқда. Асар "Диксит Алгоритми", яъни "Ал-Хоразмий дейдики" деб бошланади. Хоразмий қаламига мансуб астрономик асарнинг 1037 йилда кўчирилган арабча нусхаси Страсбург (Франция) университети кутубхонасида мавжуд. Ал-Фарғоний асарларидан бирининг қўлёзмаси АҚШнинг Принстон университети кутубхонасида сақланмоқда. Мисрнинг машҳур "Ал-Азхар" дорилфунунида марказий осиёлик олимларнинг юздан ортиқ асарлари бугун ҳам илми толиблар хизматидадир. Ал-Хоразмий асарлари бутун дунё математикларининг алгебрага оид изланишлари силсиласидаги биринчи халқа ҳисобланиб, "Ал-Хоразмийнинг ижодий фаолияти табиатни ўрганиш, билишнинг илмий методларини татбиқ этишга йўналтирилган эди. Унинг ижодиёти ўрта аср Шарқининг табиий-илмий ва илғор тараққийпарвар фалсафий ғояларини шакллантиришга ёрдам берган" [6, С.33].

Демак, IX-XII асрлар Марказий Осиёда илму фан, дин, маданий. маърифий тараққиётнинг барча соҳаларида юқори даражали ривожланиш юз берди. Шу боис бу жараённи уйғониш, ренессанс даври дейишга етарли асос мавжуд. Шу боис IX-XII асрларда маърифатли дунё юртимиз донишмандларини қанчалик иззат-икром қилган бўлса, XXI асрда биз халқимиз, миллатимизга нисбатан ана шу эҳтиромни қайтадан қўлга киритишимиз керак.

Бугунги кунда Ватанимиз янги цивилизация арафасида турибди, мамлакатимиз улкан тараққиёт сари қадам қўймоқда ва катта тарихий даврни ўз ичига олган уйғониш даври маънавияти халқимиз маданий меросининг ўзига хос хусусиятларини очиб беришда алоҳида аҳамият касб этади.

#### Иқтибослар / Сноски/References

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: «Маънавият», 2008. (Karimov I.A. High spirituality is an invincible force. T.: "Spirituality", 2008.)
2. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. -Т.: Ўзбекистон, 1999.-бет. 185.( Karimov I.A. We are building our future with our own hands. T.: Uzbekistan, 1999. P. 185)
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –бет. 145-146 (Mirziyoyev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. –Т.: “Uzbekistan”, 2017. Pages 145-146.)
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси “Халқ сўзи” газетаси, –Т.: 2017. 23 декабрь –бет 2 (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis, “Khalq so'zi” newspaper, December 23, 2017, page 2.)
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжихат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. 1-жилд – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. –бет. 468-469 (Mirziyoyev Sh.M. We will resolutely pursue our national development path and take it to a new level. Let us unite more and work resolutely for the fate and future of our country. Volume 1 - Tashkent: “Uzbekistan”, 2018, pages 468-469.)
6. Хайруллаев М.М. О Мировоззрении и научных идеях ал-Хорезми // Великий ученый средневековья ал-Хорезми – Т.: 1985. -С.33. (Khayrullaev M.M. On the World View and Scientific Ideas of al-Khorezmi // The Great Middle Aged Scientist al-Khorezmi - Tashkent, 1985. -P.33.)

## KLASSIK USLUBNING PAYDO BO'LISHI HAMDA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

*Aziza To'xtaqulovna*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*"San'atshunoslik" fakulteti "Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi" kafedrası  
o'qituvchisi Vosiyeva*

*Rustamova Malika Bektosh qizi*

*Dizayn professional ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada klassik uslub liboslarining yaralish tarixi va hozirgi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** klassik uslub, dizayner, kuturye, palitra, zamonaviy moda, gamma, kolleksiya

**Аннотация.** В данной статье освещена информация об истории создания платьев классического фасона и их значении сегодня.

**Ключевые слова:** классический стиль, дизайнер, кутюр, палитра, современная мода, гамма, коллекция

**Abstract.** In this article, information about the history of the creation of classical style dresses and their importance today is highlighted.

**Key words:** classic style, designer, couture, palette, modern fashion, gamma, collection

Bugungi kunda kiyim sohasida 80 dan ortiq makro va mikro uslublar mavjud. Asosiy makro uslub turlariga quyidagilar kiradi klassik, romantik, etno, sport, avangard uslubi. Barcha qolgan uslublar esa mana shu 5 ta asosiy uslubning hosilasidir.

Klassik yohud konservativ uslub bu chiziqdagi o'ta oddiylik ixcham andoza demakdir. Bu uslubdagi narsalar matoning yuqori sifati va aslligi bilan yanayam jozibador ko'rinadi. Axromatik bo'yoqlar gammasi va pastel jilolarga ega bo'ladi. Bu hissiyotlarga murojaat qilmaydigan shunday uslubki undagi barcha jihatlar eng mo'tadil yo'sinda bo'ladi. Unda keskin moda detallari uchramaydi. Uzunligi, kengligi, hajmi va mutanosiblik masalalarida har doim o'rtacha va ko'zlarimiz ko'nikkan bo'ladi.

Ayollar klassikasi. Kiyimlarning klassik uslubi turli xil elementlarga masalan, nozik gazsimon shlyapa yoki uzun perchatkalar bilan ozgina jozibali bo'ladi. Bunday aksessuarlar bilan hatto qat'iy klassikada ham ayol yumshoq romantik bir ijod manbai bo'lib ko'rina oladi va bunga alohida e'tibor berish kerak. Albatta klassik kiyim - kechak uslubi rang barang qarorlarni qabul qilish sohasida qat'iy bo'ladi, chunki bu yerda qora va oq ranglar, barcha kul ranglar shuningdek jigarrang, ko'k va yashil ranglar mavjlangan qorong'u ko'rinishda bo'ladi. Shunga qaramasdan ayollar klassik uslubi erkaklarnikidan alohida farq qiladi. Misol uchun har ikkala shim va yupka klassik bo'lishi mumkin, garchi ikkovi ham turli uzunlikda bo'lsa ham. Biroq, haddan oshishdan qochish kerak, shuning uchun mini yubkalar super maxi uzunlikdan tashqari bo'ladi. Eng ma'qul uzunligi tizzani



ustidan yoki tizzadan pastga to'g'ri keladi. Formalardan tekis qalam yupkalar va trapetsiyasimon shakllar mos keladi.

Klassik uslubdagi kiyim aksessuarlar. Ayollar uchun barcha zamonaviy klassik liboslar singari, bu yo'nalishdagi aksessuarlar maksimal zaiflik, cheklov va lakonizm bilan ajralib turadi. shunday qilib an'anaviy tarzda klassik ayol tasvirini yaratish uchun yoqimli bo'yin sharflar, nozik bosh kiyimlar va tabiiy materiallardan yasalgan kichik hajmli sumkalar, ko'zoynaklar bilan to'ldiriladi. Shunga o'xshash ko'rinishga ega bezaklarni ham diqqat bilan tanlab olish kerak bo'ladi. Juda katta massiv mahsulot butun tasvirni buzishi mumkin. Shuning uchun imtiyoz kichik va oddiy narsalarga berilishi kerak.

Ayollar uchun klassik biznes kiyimi. Chiroyli kiyinishni xohlaydigan, lekin boshqalarning e'tiborini ish qobilyatidan chalg'itmaydigan ishbilarmon ayollar ma'lum talablarga javob beradigan kiyimlarda qat'iy klassik uslubni afzal ko'radi. Biznes klassik uslubi quyidagi xususiyatlarga ega .

\*Ranglar palitrasi. Klassiklar yorqin va rang - barang ranglar va bosmalarga ruxsat bermaydi .

\*Qat'iy shakllar va qisqacha uslublar;

\*Tizzadan yoki tizzadan pastda, ortiqcha yoki tizzadan kamida 10 santimetr bo'lgan etaklarning ma'lum uzunligi ;

\*Minimal bezak va dekorativ elementlar ;

\*Qatordagi shimlar va to'g'ridan - to'g'ri kesilgan shimlar;

\*Poshna balandligi 4 - 7 santimetr bo'lgan yopiq poyafzal .

Klassik kiyim - kechak uslubi. Faol hayot tarzi bilan shug'ullanadigan yosh ayollar aksariyat hollarda zamonaviy va jozibali ko'rinishni xoxlashadi. Ayniqsa, bu stilistlar va dizaynerlar uchun klassika va sportning g'ayritabiiy ko'rinishlari paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi narsalarga nafaqat sport zaliga, balki muayyan uchrashuv va tadbirlarga ham o'tishingiz mumkin. Sport klassik kiyim kechaklari bir nechta qoidalarga bo'ysinadi, ular orasida quyidagilar alohida ajratilgan.

\*Odatda bir - biriga zid bo'lgan narsalarning to'qimalarning turli xil kombinatsiyasi;

\*To'g'ri vertikal chiziqlar mavjudligi;

\*Universallik;

\*Yorqin ranglar va soyalar;

\*Yo'nalishga mos maxsus ichki kiyimlar;

\*Shar uslubiga oid sport poyafzali va boshqa sport poyafzali;

\*Bo'yanish va zargarlikning yo'qligi;

Ayollar uchun klassik liboslar. Qizlarning an'anaviy uslubi har bir chiroyli ayolga zamonaviy, chiroyli va oqlangan ko'rinishga imkon beradi .U hatto eng kichik shafqatsizlikka yoki ochiqlikka yo'l quymaydi .Shuning uchun yosh honimlar boshqalarga yomon taassurot qoldirishdan qo'rqmaydi. Ayni paytda modadagi klassik kiyimlar eskirib qolgani ayollarni qo'rqitmaydi – klassik liboslar har doim ham dolzarb va har qanday yoshga mos keladi. Klassik uslubi ishonchli va hurmatga sazovor ko'rinishni istagan, darhol ishonchni uyg'otadigan va to'g'ri taassurot qoldirmoqchi bo'lgan kuchli erkaklarga mos keladi. Ish dunyosida bu

birinchi raqamli uslubdir va har kunlik hayotda u sizga yaqin bo'lmasa ham, maxsus holatlar uchun bir necha ko'rinishlar bilan birlashtirish kerak bo'ladi. Dastlab, bu uslub haqiqatan ham shunday ko'rinishda edi, ammo vaqt o'tishi bilan bu bizning odatiy tushunchamizdan uzoqlashdi - klassik liboslar uchun ular original matolardan foydalanishni boshladilar, klassik poyabzallar kedalar bilan almashtirildi va zamonaviy aksessuarlari bilan yakuniy ko'rinishlar shakllantirildi. Yaxshi tayyorlangan kostyum va ko'ylak klassik uslubning asosidir. Odatda shim va ko'ylak bir xil matodan tikiladi, faqat tvid, jun mato va tikishning o'zgarishlar umumiy elementlari mavjud bo'ladi: Masalan, yoqa, ko'ylak cho'ntagi, pastki cho'ntaklar. Dizayn bo'yicha ular moda tendentsiyalariga moslashishi va o'zgarishi mumkin. Kostyumlar, shlyapalar va qoplamali cho'ntaklar ommalashgan, keyin esa ular o'rnini keng peshonali, keng yoqali va keng cho'ntakli ko'ylaklar egallagan.

Biznes kostyumlari uchun ko'ynaklar odatda ochiq ranglarda, oq va ko'k ranglarda tanlanadi. Klassik naqshlarga ruxsat beriladi. Turli mamlakatlarda klassik uslubga bo'lgan munosabat turlicha bo'ladi. Masalan, Fransiyada erkaklar xilma-xilligi va tajriba qilishni yaxshi ko'radilar .

Ayollar uchun klassik liboslar umuman, klassik uslub faqat uchta so'z bilan ifodalanishi mumkin:

- \*Nafislik;
- \*Oddiylik;
- \*Jozibalilik;

Ayollar uchun klassik kiyimlar odatda kostyumlar, ko'ylaklar, bluzkalar va nosimmetrik kesilgan shimlar, eng kam sonli dort, kesilgan va dekor elementlar hisoblanadi.

Klassik kiyimlar brendi.

1. Dunyoning eng mashhur klassik kiyimlari orasida birinchi o'rinni Chanelning asosiy uyi egallaydi. U bir vaqtlar klassik uslubni yaratgan.

Modemoiselle. CoCo edi. Uning yengil qo'llari bilan butun Evropa bo'ylab ayollar korsetdan xalos bo'lib avval ayollar keyin qizlar, butun dunyo keyinchalik klassika deb atalgan moda libosini kiyishni boshladi .

Chaneldan olingan klassik ayollar kiyimlari nafaqat kiyimda, balki makyajda, sochlar, poyafzal va aksessuarlarda ham tabiiylik va nafislikka to'la tasvirni yaratishni o'z ichiga oladi. Chanel dizaynerlari matolarning sifati, ularning tabiiy va yoqimli dokunusu, ayol liboslarini yaratishdagi eng muhim elementini hisobga olish kerak. Mumtoz uslubdagi ko'ylaklar va liboslar holi ham mos va abadiydir, dahriy modemoiselle ruhi kabi.

2. Klassik kiyimlarning yetakchi markazlaridan biri - Hugo Boss - ayol liboslarida bir bir nechta erkaklar elementlarini singdirishi bilan yangilangan uslubni nazarda tutadi. Bu klassik biznesga o'xshashdir, lekin etaklarning uzunligi, ko'ylagi va shim kiyimi cheklanganligi jihatidan kamroq. Klassik ayollardan tashqari, pastki qismga biroz torayib ketgan shim brend Hugo Boss shimlarning etaklari va ko'ylagi, klassik golf yoki bluzka bilan birga oddiy shimlarni taqdim etadi .

3. Italiyaning „D' A Venenza " brendi mato turlarining mukammal sifati tufayli Evropada mashhur bo'ladi. Ayollar kiyimining keskin chiziqlari bilan birgalikda materiallarni tanlab olishda ehtiyotkorlik brendni Italiyalik modaning balandiga ko'tarildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobonazarov S. KOMPOZITSIYA MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM EKANLIGI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 11-14.
2. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
3. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
4. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS'ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B9. – C. 106-108.
5. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 234-237.
Bugungi kunda ona tili va ingliz tili darslari 1-sinfdan boshlab o'tilmoqda. Ona tili darsini boshlang'ich ta'limni tugallagan o'qituvchi, ingliz tilini esa shu yo'nalishni tamomlagan o'qituvchilar olib borishmoqda. Zamon talabi esa har bir jamiyat a'zosini ingliz tilini bilishini taqazo etmoqdadir. Boshlang'ich ta'limni tamomlagan yosh kadrlar esa ingliz tilini boshlang'ich sinf o'quvchilariga yetkazib bera oladigan darajada bilishlari shart hisoblanadi. Shunday ekan, ular bu fanni ham o'zlari o'tishlari mumkinligini tasdiqlaydi. Ana shundagina ular bema'lol bu ikki til sohasini o'zaro bog'lashlariga zamin yaratishadi.

Ammo bu ikki fanlarni bir-biriga bog'lash o'qituvchiga hamda o'quvchilarga ayrim qiyinchiliklarni tug'diradi. Ya'ni ingliz tilini o'rganilishidagi ayrim murakkabliklarning mavjudligidir. Bu murakkablik tilning grammatika qismiga xos bo'lib, ingliz tilida o'rgatiladigan mavzu ona tilida shu sinfdan o'rgatilmagandir. 1-sinf o'quvchilariga ingliz tilida quyidagi mavzular o'rgatiladi: kishilik olmoshi (personal pronoun), shaxssiz gaplar (impersonal statements), buyruq mayli (command form), sanaladigan (countable) va sanalmaydigan (uncountable) otlar. Bu mavzular ona tilida: kishilik olmoshi 4-sinfdan, shaxssiz gaplar, buyruq mayli, sanaladigan va sanalmaydigan otlar umuman boshlang'ich sinfdan o'tilmaydi. 3-sinf ingliz tili darslarida sifat (adjective) larning

qiyosiy(comparative), orttirma(superlative) darajalari o'tiladi. Ona tili darslarida faqat sifat haqida ma'lumot beriladi.

Integratsion dars belgilangan dasturdan tashqari tashkil qilinganligi hisobga olinsa, unda o'qituvchi bu dars uchun alohida dastur tuzishi, o'zining samarali usullarida foydalanishi, qo'shimcha ma'lumotlar berishi va didaktik o'yinlar tashkil qilishi mumkin. Masalan: Kishilik olmosh(personal pronoun)lari mavzusini tushuntirish orqali ona tilidagi bog'lamlar mavzusini ham qisqacha yoritish va o'quvchilarda mavzu yuzasidan ham ingliz tilida, ham ona tilida tushuncha hosil qila olamiz.

I - MEN

YOU - SEN

HE - U (O'G'IL BOLALAR UCHUN)

SHE - (QIZ BOLALAR UCHUN)

IT - (NARSA-BUYUMLAR UCHUN)

WE - BIZ

YOU - SIZ

THEY - ULAR

I am a student ~ Men talabaman

He is a student ~ U talaba

She is a student ~ U talaba

We are students ~ Biz talabalarmiz

You are students ~ Siz talabalarsiz

They are students ~ Ular talabalar

Yana ingliz tilida hozirgi zamon davom(Present continuous) fe'li o'rgatiladi, ona tilida davom fe'li umuman o'rgatilmaydi.

Bu murakkabliklarni hal qilish albatta o'qituvchidan ijodiy fikrlashni, rejalashtirishni talab qiladi. Quyidagi mavzular bo'yicha boshlang'ich sinflarda ona tili va ingliz tillarini integratsiyalash mumkin: alifboni o'rganish(learning alphabet), so'roq gap(question sentence), sifat(adjective), son(nuber), fe'l(verb) va ot(noun) kabilar.

Bu fanlarni bog'laganda o'qituvchi aslo qiynalmaydi. Chunki ingliz tilining grammatikasini tushuntirish o'zbek tilida olib boriladi. Bu o'qituvchi va o'quvchiga qulaylikni keltirib chiqaradi. Dars konspektining o'zbek tilida yozish mumkinligi maqsadga muvofiqdir.

Ona tili va ingliz tili darslari integratsiyasining tarbiyaviy ahamiyati shuki, bu ikki fanning alohidaligi davridagi tarbiyaviy jihatlarining uyg'unlashishidir.

Ona tili darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o'rin beriladi.

Xulosa

Ona tili o'qitish jarayoni ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslarida har bir kishi uchun zarur bo'lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatleri bilanham tanishtiriladi. Ona tili o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan.

Ingliz tilini o'rganish ingliz tilida suhbat olib borish, ingliz tilida yozilgan ma'lumotlarni ravon o'qib, mazmunini to'la tushunish. chet mamlakatlarga chiqib o'z faoliyatini yurishitishga imkon beradi.

#### **Adabiyotlar**

1. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). — T.: Cho'lpon, 2005.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000- y.
3. M. Umarova, Sh. Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). —T.: Cho'lpon, 2008.
4. S.S. Xan, L. H.Jo'rayev. Kid's English (2-sinf uchun darslik). — T.:O'zbekiston, 2018.

## „DEKSERICH” SUYUQ EKSTRAKTI TARKIBIDAGI FLAVONOIDLAR MIQDORINI YUSSX USULIDA ANIQLASH

*Iminova I.M., Axmatohuнова M.K., Mamajalilova M.M.*  
*Andijon davlat tibbiyot instituti .Andijon shahri, O'zbekiston Respublikasi e-mail:*  
*inoyatiminova@gmail.com, tel: (90)359-64-57*

**Annotatsiya.** bugungi kunda o'simliklardan olingan tabiiy dori vositalariga talab ortib bormoqda. Dalachoy yer ustki qismi, bo'znoch guli, na'matak mevasi va onalik makkajo'xori

**Калит сўзлар:** flavonoidlar, ekstrakt, YSSX, o'simliklar, tahlil, xromatografiya ,massa, metrologiya, , degozatsiya . spektrofotometr, to'lqin uzunligi.

**Abstract.** Today, the demand for natural medicines derived from plants is growing. Aerial parts of St. John's wort, sandy immortelle, rose hips and corn flowers. The liquid extract obtained from the aerial part of St. John's wort, immortelle, rose hips and corn pistils is called Dekserich extract. Dekserich is used in the treatment of inflammatory pathologies of the ENT organs, upper respiratory tract and skin.

**Keywords:** flavonoids, extract, HPLC , plants ,analysis, chromatography, mass ,metrology, degassing, spectrophotometer, wavelength

**Аннотация.** На сегодняшний день растет спрос на натуральные лекарства, полученные из растений. Надземные части зверобоя, бессмертник песчаный, плоды шиповника и цветки кукурузы.

**Ключевые слова:** флавоноиды, экстракт, ВЭЖХ , растения ,анализ, хроматография, масса ,метрология, дегазация , спектрофотометр, длина волны

Dalachoy yer ustki qismi, bo'znoch guli, na'matak mevasi va onalik makkajo'xori gulining ustunchasi bilan og'izchasidan tarkib topgan yig'madan suyuq ekstrakt olindi va Dekserich deb nomlandi. Dekserich LOR-organlari, yuqori nafas yo'llari va terining yallig'lanish patologiyalarini davolashda qo'llaniladi.

Tadqiqotning maqsadi: YuSSX usuli yordamida „Dekserich” suyuq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar miqdorini aniqlash.

Usul va uslublar: YuSSX usuli yordamida „Dekserich” suyuq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar miqdori aniqlandi. Dastlab eng optimal harakatchan faza tanlab olindi. Buning uchun quyidagi fazalar tayyorlandi va xromatografiya o'tkazildi: metanol – bufer eritma (85:15), metanol – suv (90:10), metanol – atsetonitril – suv (50:40:10). Bularni orasidan eng optimal muhit ya'ni, rutin moddasining piklari eng yaxshi chiqqan muhit metanol – bufer eritma (85:15) nisbatdagisi bo'ldi. Xromatografiyada foydalanilgan optimal sharoit: xromatograf – firma Agilent Technologies (AQSH), marka „ Agilent 1260 Infinity”, spektrofotometrik detektor; kalonka o'lchami – 150 x 4,6mm; sorbent – Zorbax Eclipse XDB-CN; patok tezligi – 1.2 ml/min; na'muna olishhajmi – 20 mkl;

temperatura - 30<sup>0</sup>C; analiz davomiyligi – 14 min; o'lchangan to'lqin uzunligi – 356 nm.

Rutin standart eritmasini tayyorlash: 0,01 g (aniq tortim) rutin standartini tortib olib, 50 ml lik o'lchov kolbasiga solindi. Ustiga 15 ml harakatchan faza qoshiladi. 2 daqiqa davomida ultrato'lqinli hammomga eriguncha qo'yiladi. Rutin to'liq erib ketgach eritmaning hajmi kolba belgisigacha harakatchan faza bilan yetqaziladi. Undan 2 ml olinib, 250 ml o'lchov kolbasiga solinadi va harakatchan faza bilan kolba belgisigacha yetqaziladi. Tayyor bo'lgan eritma 0,45 μ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi. (Tayyorlangan eritmaning konsentratsiyasi 0.8mg/ml ga teng).

Ishchi eritma tayyorlash: 25 ml aniq o'lchab olingan Dekserich ekstrakt namunasi 100ml hajmli o'lchov kolbasiga solinadi. Ustiga 50 ml harakatchan faza qo'shiladi. 25 daqiqa davomida ultrato'lqinli hammomga solinadi. Eritma 0,45 μ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi. Filtrlangan eritmadan 2 ml olinib 250 ml o'lchov kolbasiga solinadi va eritmaning hajmi kolba belgisigacha harakatchan faza bilan yetqaziladi. Tayyor bo'lgan eritma 45 μ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi.

Natijalar: Tayyorlangan standart eritma sistemaga yuborildi va 356 nm to'lqin uzunligida o'lchandi. Standart eritmadan olingan pik bilan tekshiriluvchi modda tarkibidagi pikning chiqish vaqtlari bir-biriga mos tushishi kerak. Agar mos kelmasa, kolonkani almashtirish kerak. Bizda mos keldi, standart eritma 2,590 minutda chiqdi. Ekstrakt tarkibidagi rutin 2,570 minutda chiqdi. Analiz natijasida „Dekserich“ suyuq ekstrakti tarkibidagi rutin 0,7987 mg/ml, chiqdi. Olingan natijalar matematik statistik hisoblandi. Metrologik xarakteristika natijasiga ko'ra o'rtacha xatolik 1,77% va 1,38% ga teng bo'ldi.

Xulosalar: 1. Dalachoy yer ustki qismi, bo'znoch guli, na'matak mevasi va makkajo'xori onalik gulining ustunchasi bilan og'izchasidan tarkib topgan yig'madan suyuq ekstrakt olindi va Dekserich deb nomlandi.

2. Miqdoriy tahlili yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida olib borildi, flavonoidlar miqdori rutinga nisbatan 0,35 mg/ml, kversetinga nisbatan 0,18 mg/ml ni tashkil qildi. Tahlilning o'rtacha xatoligi esa 1,77% va 1,38% ga teng bo'ldi.



---

**RESPUBLIKAMIZ HUDUDLARIDAN KELTIRILGAN ASAL  
NAMUNALARI TARKIBIDAGI INVERT SHAKARI MIQDORI VA  
SIFATINI ANIQLASH NATIJALARI**

*Toshbekov Ismat A'zamqul o'g'li,  
Suyunov Rashid Uktamovich,  
Ibragimov Farxod Moripovich*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada respublikamizning turli hududlaridan keltirilgan asal namunalari invert shakarini aniqlashda miqdor va sifat jihatdan laboratoriya tekshirish natijalari bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** invert shakar, glyukoza, fruktoza, kolba, metilin koʻki, qizil qon tuzi, natriy ishqori, pipetka, ferrosianid. monoflor, poliflor.

**Kirish.** Asalarichilik tarmogʻini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xoʻjaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada koʻp aytirish, asalni qayta ishlash boʻyicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilgʻor tajribalarni respublikamizning barcha hududlarida tatbiq etish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikamizda asalarichilik tarmogʻini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3327-son qarori imzolandi.[2] Asal tarkibidagi monosaxaridlarni, yaʼni asosan glyukoza va fruktozalarning umumiy miqdori invert shakari deb yuritiladi. Asal quyidagi mezonlar boʻyicha ajratiladi: asal yigʻilgan joyi (togʻ, oʻrmon, oʻtloq, dasht, va choʻl); manba turlari boʻyicha (monoflor (bir xil tur oʻsimlik gullaridan) yoki poliflor (har-xil oʻsimlik gullaridan yigʻilgan asal); yigʻib olish davri boʻyicha (baxorgi (may); erta yozgi; yozgi; kech yozgi va kuzgi); kelib chiqishi boʻyicha (gul asali, daraxt shiralaridan yigʻilgan padev asaliga boʻlinadi) va asalari zotiga koʻra farq qiladi. [6] Mana shu koʻrsatkichlar asosan asalning inver shakar miqdoriga taʼsir etadi. Shuning bilan birgalikda insonlar tomonidan asalga shakar qiyomi qoʻshilish natijasida ham asalning invert shakar miqdori oʻzgaradi. Agar asal tarkibidagi suv miqdori koʻp boʻlsa, unda asal yetilmagan boʻlib, uning tarkibida murakkab shakar (saxaroza) koʻp boʻladi, fruktoza va glyukoza (invert shakar), fermentlar va xid beruvchi moddalar kam boʻladi.

**Material va metodlar:** Tajriba oʻtkazish uchun olib kelingan asal namunalari quyidagi hududlardan keltirilgan:

1-jadval

№	Ho'jalik nomi	Hudud	Oy	O'simlik turi	Asalari zoti
1	“Maloxat Nazarova” asalarichilik va bog'dorchilik f/x	Shovot tumani yaylov hududi	avgust- sentabr	yantoq-turlio'tlar	Karpat
2	“Boboqulov Erkin Rahimovich” MCHJ asalarichilikka ixtisoslashgan d/x	Kaspi va Chiroqchi tumanlarida cho'l hududi	iyun-iyul	paxta vayantoq	Bakfast
3	“Toshpulatov Shavkat Toshpulatovich” MCHJ asalarichilikka ixtisoslashgan d/x	Qamashi tumani tog'hududi	iyul	yantoq	Karnika
4	“Asadbek toza asali” MCHJ	Xiva tumani dala hududi	iyul- avgust	maxsar-turli o'tlar	Karnika

Laboratoriya tekshirish ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining “Veterinariya sanitariya ekspertizasi” kafedrasida o'tkazildi. Invert shakarini aniqlashda sifat va miqdor usullaridan foydalaniladi. Invert shakarining miqdorini aniqlashda ferrosianid usulidan foydalanamiz. Bu usul shakarni qizil qon tuzi eritmasining ishqoriy muhitida oksidlashga asoslangan. Bunda indikator sifatida metil ko'ki eritmasi ishlatiladi. Invertshakarini aniqlash uchun bizga quyidagi eritmalar kerak bo'ladi: 1 foizli qizil qon tuzieritmasi, 10 foizli natriy ishqori, 0,25 foizli asalning suvdagi eritmasi, 1 foizlimetil ko'ki eritmali.

Invert shakarini aniqlashda sifat usulini bajarish uchun kolbaga 10 ml 1 foizli qizil qon tuzi eritmasi solinib, ustiga 2,5 ml 10 foizli natriy ishqori va 5,8 ml 0,25 foizli asalning suvdagi eritmasi qo'shiladi. Keyin kolbadagi aralashma bir daqiqa mobaynida qaynatiladi va aralashmaga bir tomchi 1 foizli metil ko'ki eritmasi tomiziladi. Agar bunda probirkada hosil bo'lgan ko'k rang yo'qolmasa, tekshirilayotgan asalda invert shakari 70 foizdan kamligini bildiradi. Bunday asal soxtalashtirilgan hisoblanadi va sotishga ruxsat etilmaydi. Agar probirkadagi aralashma rangsizlanib oqarsa, invert shakarining miqdori 70 foizdan ortiq ekanligini bildiradi. Invert shakarining ma'lum miqdorda bo'lishligini aniqlash uchun kolbaga 10 ml 1 foizli qizil qon eritmasi, 2,5 ml 10 foizli kimyoviy toza o'yuvchi natriy, 5 ml 0,25 foizli asal eritmasi olinadi va bir tomchi 1 foizli metil ko'ki tomiziladi. Hosil bo'lgan aralashma aralashtirilib qaynash darajasigacha qizdiriladi. Kuchsiz qaynayotgan kolba ichiga 0,25 foizli asal eritmasi tomizilib, ko'k rang yo'qolguncha titrlanadi, oxirida kuchsiz binafsha rang hosil bo'ladi. Aralashma sovutilgandan keyin rangni tiklanishi e'tiborga olinmaydi. Asal tarkibidagi invert shakarining miqdori jadval asosida aniqlanadi. [5].

**Natijalar va ularning tahlili:** Olib kelingan har bir asal namunalari yuqorida keltirilgan laboratoriya usullari yordamida tekshirildi. Invert shakarini aniqlashda

sifatusulini bajarish uchun tayyorlangan 4 turdagi asal aralashmasining har biriga bir tomchidan 1 foizli metil ko'ki eritmasi tomizildi.

Sifat ko'rsatkichi bo'yicha bajarilgan ishning natijasi.

2-jadval

Namunalar	Rangsizlanishi
1-namuna	Rangsizlandi
2-namuna	Rangsizlandi
3-namuna	Rangsizlandi
4-namuna	Rangsizlandi

Tajribamizdagi 4 ta asal namunamizning hammasi rangsizlanib, asal tarkibida invert shakarining miqdori 70 % dan ko'p ekanligini bildirdi.

Invert shakarining ma'lum miqdorda bo'lishligini aniqlash uchun tayyorlangan 4 turdagi asal aralashmalar yaxshilab aralastirilib, qaynaguncha qizdirildi. Kuchsiz qaynayotgan kolba ichiga 0,25 foizli asal eritmasi tomizilib, ko'k rang yo'qolguncha titrlandi. Titrlashning oxirgi jarayonida aralashmalar kuchsiz siyox rangga kirdi.

3-jadval

Titrlash uchun sarf qilingan 0,25 foizli asal eritmasi (ml)	Invert shakari (%)	Titrlash uchun sarf qilingan 0,25 foizli asal eritmasi (ml)	Invert shakari (%)	Titrlash uchun sarf qilingan 0,25 foizli asal eritmasi (ml)	Invert shakari (%)
5,0	81,2	6,5	62,6	8,3	49,2
5,1	79,6	6,6	61,6	8,4	48,6
5,2	78,9	6,7	60,7	8,5	48,0
5,3	76,6	6,8	59,8	8,6	47,5
5,35	75,9	6,9	59,0	8,7	46,9
5,4	75,2	7,0	58,2	8,8	46,4
5,45	74,5	7,1	57,3	8,9	45,9
5,5	73,8	7,2	56,6	9,0	45,4
5,6	72,5	7,3	55,9	9,1	44,9
5,7	71,3	7,4	55,1	9,2	44,4
5,75	70,7	7,5	54,3	9,3	43,9
5,85	69,5	7,6	53,6	9,4	43,5
5,9	68,9	7,7	53,0	9,5	43,0
6,0	67,8	7,8	52,3	9,6	42,6
6,1	66,6	7,9	51,5	9,7	42,2
6,2	65,6	8,0	51,0	9,8	41,7

6,3	64,5	8,1	50,4	9,9	41,3
6,4	63,5	8,2	49,8	10,0	40,9

Miqdor usuli bo'yicha tekshirilgan asal namunalarimizni 0,25% li asal eritmasi bilan titrladik va natijani 2-jadval asosida aniqlab oldik. Yani 1-asal namunamizda invert shakarining miqdori 73,8%, 2-asal namunamizda invert shakarining miqdori 75,2%, 3-asal namunamizda invert shakarining miqdori 73,8%, 4-asal namunamizda invert shakarining miqdori 76,6% ni tashkil etmoqda. Miqdor usuli bo'yicha bajarilganishning natijasi.

4-jadval

Asal namunalari	Titrlash uchun sarfqilingan 0,25 foizli asal eritmasi (ml)	Invert shakarmiqdori %
1-namuna	5,5	73,8
2-namuna	5,4	75,2
3-namuna	5,5	73,8
4-namuna	5,3	76,6

**Xulosa.** Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanida joylashgan "Boboqulov Erkin Rahimovich" MCHJ asalarichilikka ixtisoslashgan d/x, Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida joylashgan "Toshpulatov Shavkat Toshpulatovich" MCHJ asalarichilikka ixtisoslashgan d/x, Xorazm viloyati, Shovot tumanida joylashgan "Maloxat Nazarova" asalarichilik va bog'dorchilik f/x, Xorazm viloyati, Xiva tumani "Asadbek toza asali" MCHJ asalarichilikka ixtisoslashgan d/x yig'ilgan asal tarkibida invert shakari miqdor va sifat jihatdan normada ekanligini ko'rsatmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2017 yildagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3327-son qarori.
2. V.Brovarskiy, Sh.Suyarqulov, Ya. Brindza, V.Otchenashko. "Asalarichilikda tajriba ishlari" Toshkent-2021-yil.
3. S.M.Murodov, F.B.Ibragimov, S.F.Xoliqov, Achilov.O.E. Veterinariya-sanitariya ekspertizasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2017-yil
4. A.I.Isamehammedov, X.K.Nikadambayev. Asalarichilikni rivojlantirish asoslari. Toshkent, 2013 yil.
5. S.M.Murodov, F.B.Ibragimov, S.F.Xoliqov, Achilov.O.E. Veterinariya sanitariya ekspertizasi fanidan o'quv uslubiy majmua. Samarqand 2021-yil.
6. Ибрагимов, Ф., Насимова, Д., & Рахматов, Ж. (2022). Asal tarkibidagi diastoz fermentini aniqlash. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(1), 132-134.

7. Rayimzhonovna, N. D., Abbasovna, M. Z., & Elburusovna, I. M. ORGANOLEPTIC INDICATORS AND THE PRESENCE OF AMMONIA IN BEEF INFECTED WITH FASCIOSIS.
8. Неъматуллаева, А. Б., Ибрагимов, Ф. М., & Суюнов, Р. У. (2023). ВЕТЕРИНАРНО-САНИТАРНАЯ ЭКСПЕРТИЗА ГОВЯДИНЫ ВЫПУСКАЕМОЕ ДЛЯ ПОТРЕБЛЕНИЯ. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(2), 55-61.
9. Boysinovna, B. N., Burievich, I. F., & Shuxratovna, A. N. (2021). The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 845-849.
10. Ibragimov, F., Suyunov, R., & Ilyosov, Z. (2023). BALIQ GO 'SHTINI VETERINARIYA SANITARIYA JIHATDAN BAХOLASH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(1 Part 1), 122-126.
11. Ibragimov, F. B., Ilyasov, Z. I., & Ibragimov, F. M. (2023). VETERINARY SANITATION OF FISH MEAT QUALITY ASSESSMENT OF ASPECTS.
12. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). INSPECTION OF MEAT PRODUCTS AND IMPROVEMENT OF CONTROL AT THE SLAUGHTERHOUSE. Journal of new century innovations, 17(4), 155-162.
13. Ачиллов, О., Ибрагимов, Ф. Б., Рузимов, М., & Асомиддинов, У. (2022). ЭХИНОКОККОЗ БИЛАН ЗАРЛАНГАН ҚЎЙ ГЎШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ-САНИТАРИЯ ЭКСПЕРТИЗАСИ. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 70-73.
14. Do'skulov, V. M., Ibragimov, F. M., & Mamadullaev, G. X. (2022). QORAMOLLARDA TUBERKULOZ KASALLIGIDA OLINADIGAN MAXSULOTLARNING VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 18-20.
15. Ibragimov, F. M., & Bo'ronov, A. N. (2022). TURLI OZUQALAR BERIB BOQILGAN QUYON GO'SHTINING SIFAT TAXLILI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 102-105.
16. Муродов, С., Ачиллов, О., & Асомиддинов, У. (2022). ҚОРАМОЛ ГЎШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ-САНИТАРИЯ ЖИХАТДАН БАХОЛАШ. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 273-277.
17. Ibragimov, F. B., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 611-614.
18. Ибрагимов, Ф., & Арзимуродова, Р. (2022). Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш давр талаби. Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(2), 369-374.

## ҚОРАМОЛЛАРНИ ҚОН-ПАРАЗИТАР КАСАЛЛИКЛАРИДАН АСРАШ БУГУНГИ КУННИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОСИ

*Дўскулов Воҳиджон Мухитдинович*  
в.ф.н., в.в.б., доцент

*Юнусов Худайназар Бекназарович*  
Илмий раҳбар-, б.ф.д., профессор  
Самарқанд, Ўзбекистан

**Аннотация.** При лечении тейлериозе узбикарб в комплексе делагиллом, сульфантролом или бутачем, тейлексом, бупаконом, телемаксом в дозе по 5,0 мл на 100 кг живой массы животных дважды с интервалом 24 часа. С профилактической целью применяют полиамидин-п и жидкую культуральную вакцину.

**Ключевые слова:** тейлериоз, бабезиоз, анемия, бутачем, тейлекс, бупакон, телемакс, полиамидин, паразит.

**Summary.** For the treatment theileriosis uzbekarb in complex delagilom, sulfantrol or butachem, teyleks, bupakon, telemax at a dose of 5,0 ml per 100 kg weight lived animals twice with an interval 24 hours. With prophylactic whole poliamidin and liquid vaccine culture.

**Key words:** cattle, theleirosis, babezioza, anemia, butachem, teyleks, bupakon, telemax, poliamidin, parasite.

Мавзунинг долзарблиги. Республикамиз мустақилликга эришгач, кўпгина соҳалар каби чорвачилик соҳасида ҳам кенг ислохотларни амалга оширди. Жумладан ветеринария ва чорвачилик соҳасида ҳам муайян ютуқларга, республикамиз худудига четдан кириб келиши хавфи бўлган турли хил юқумли-юқумсиз ва паразитар касалликларни олдини олиш ва тизимли тадбирларни йўлга қўйилишига эришилди.

Мамлакатда чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кўпайтириш ҳисобига озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, ишлаб чиқаришнинг замонавий усуллари кенг жорий этиш, бу орқали қўшилган қиймат занжирини яратиш, чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, ҳамда қорамолларнинг протозой касалликлари ва уларга қарши курашишда даволаш, профилактик чора-тадбирлари ишлаб чиқиш ҳамда уни ишлаб чиқаришга жорий этиш муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги «Ўзбекистон Республикасида чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022–2026 йилларга мўлжалланган дастурни тасдиқлаш тўғрисида»ги ПҚ-120-сонли қарори ушбу вазифани бажаришда дастур амал бўлиб хизмат қилади.

Мазкур вазифаларни бажаришда чорва молларининг қон-паразитар касалликларига қарши чора-тадбирларини маҳаллий хом ашёлардан

яратилган дори-дармонлар асосида такомиллаштириш, ҳамда мазкур йўналишда тубдан янги услуб воситаларини ишлаб чиқиш муҳим муаммолар сарасига киради.

Қорамолларнинг қон-паразитар касалликлари ўткир оқимда кечувчи, патогенезида интоксикация, анемия, ориқланиш, қон айланиш ва нафас олиш системалари фаолиятининг бузилиши каби клиник белгилар намоён бўладиган трансмиссив касалликдир. *H.anatolicum* ва *H.detrutum* касаллик таркатувчи каналар хисобланади.

Ўзбекистоннинг барча худудларида ҳам қорамолларнинг қон-паразитар касалликлари кенг тарқалган. Бу касалликка чалинган моллар ўз вақтида махсус дорилар билан даволанмаса унинг 80-90% нобуд бўлади ва қолган 10-20% ишлаб чиқаришда яроқсиз бўлиб қолади.

Қорамолларнинг қон-паразитар касалликлари ичида энг оғир кечувчиси бу тейлериоз касаллигидир.

Кана чаққандан сўнг 16-20 кунлари молнинг тана ҳарорати 41,2-42,0°C гача кўтарилиб иштаҳаси йўқолади, кавш кайтармайди, йўталади, ташки лимфатик (курак олди, сон ва елин усти) безлари 3-4 баробаргача катталашганлиги кўзга ташланади ва пайпаслаганда оғриқ сезилади. Юрак-қон томир фаолияти сустлашади, камқонлик ва интоксикация натижасида шиллик пардалар сарғаяди, қон қуйилишлар, қовоқнинг шишиши ҳамда кўздан ёш оқиши кузатилади. (1-расм). Мол ориқлаб кетади, сигирлар сут бермай қўяди, бўғозлари кўпинча бола ташлайди.



*1-расм. Тейлериоз билан касалланган мол ҳолати*

Қорамолларни қон-паразитар касалликлардан даволашда, даволаш ишларини олиб боришдан олдин уларни салқин ва осойишта жойга ўтказиш лозим. Уларга енгил ҳазм бўладиган барра ўт, майдаланган лавлаги, эндигина соғилган сут, омихта ем қўшиб атала ҳолида берилиши лозим.

Тейлериозни профилактика қилиш.

Тейлериознинг профилактикаси ҳайвонлар организмини касалликка қарши табиий чидамлик қобилятини оширишга асосланган махсус тадбирларни ишлаб чиқариш, касаллик кўзгатувчиларини тарқатувчи каналарга қарши курашиш ва қорамолларнинг тейлериялар билан зарарланиш йўллари бартараф қилишга қаратилган бўлиши керак.

Ветеринария врачлари тейлериоздан холи бўлмаган фермер хўжалигида хўжалик раҳбари билан биргаликда эпизоотик ҳолатни инобатга олган ҳолда фермер хўжалигидаги чорвачиликни ривожлантириш режасига ўзининг тейлериозга қарши чора-тадбирларини ҳам киритади.

*Умумхўжалик тадбирлари:* Тейлериознинг олдини олишда асосий эътибор мустаҳкам ем-хашак базасини яратишга қаратилади. Бундай тадбир тўрт фаслга ҳам мос бўлиши лозим. Қиш фаслида қорамолларнинг тўлик рацион билан, яхши шароитда боқилиши баҳор фаслида қорамолларни ўрта семизликда бўлишига олиб келади. Шундай тадбирларни амалга оширилганда, қорамоллар организмининг инвазион касалликларга қарши курашиш қобиляти юқори даражада бўлади.

*Махсус тадбирлар:* Тейлериозни тарқатувчи каналарга қарши кураш, уларнинг биологик ва экологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда олиб борилиши лозим. Олдин эслатганимиздек касаллик тарқатувчи каналар молхоналарда, молларда ҳамда яйловларда яшаб ўз ривожини топиши мумкин. Шунинг учун каналарга қарши курашишда акарицид препаратларини қўллаш ва молхоналарнинг санитария ҳолатини яхшилаш тадбирларини доимий равишда ўтказиш лозим.

*Кимёпрофилактика:* Кейинги йилларда тейлериоздан холи бўлмаган хўжаликларда кимёпрофилактика усуллари ишлаб чиқиш борасида катта изланишлар олиб борилди ва эътиборга лойиқ илмий-тадқиқот ишлар натижасида қуйидаги тавсиялар килинди:

Тейлериоздан холи бўлмаган хўжаликларда апрель ойидан октябрь ойигача ҳар 15 кунда бир марта молнинг 100 кг тана вазни ҳисобига 5,0 мл полиамидин-п препаратини тери остига юбориб туриш тавсия этилади.

*Махсус профилактика:* Тейлериозга қарши суюқ культурал вакцина молларнинг лимфоид ва ички орган хужайраларидаги тейлерияларнинг шизогонал босқичини сунъий озика муҳитларида ўстириш эвазига тайёрланган ва у совуқ муҳитда (криоген усулида) муҳофазаланган хужайралар массасидан иборат. Вакцина герметик ёпиқ ампулаларга жойлаштирилган бўлиб, доқа ўрамларига ўралиб, суюқ азот солинган дьюар идишида (-196<sup>0</sup>С) сақланади.

Ишлатиш олдида вакцина солинган ўрама дьюар идишидан чиқариб олинад ва ўрамадан ишлатиш учун зарур миқдордаги ампулалар чиқариб олиниб 2-3 дақиқа давомида 38°-40°С даги сув ваннасида эритилади.

Вакцина солинган ампулалар эритилгандан сўнг ундаги вакцина шприц билан сўриб олинад ва шприц ёрдамида эритувчи моддаси бўлган флаконга солинад ва молни териси остига 1 мл дан қўлланилади.



Тейлериозни даволаш.

Тейлериозни даволашда қуйидаги комплекс чора-тадбирларни қўллаш тавсия этилади:

- даволашнинг 1-3 кунлари эрталаб молнинг ҳар 100 кг тирик вазни ҳисобига 2 мг микдорида диамидин тери остига ва шундан 6-8 соат кейин сульфантролнинг 3%-лик сувдаги эритмасидан кунига бир мартадан 2-3 кун давомида молнинг ҳар 100 кг тирик вазни ҳисобига 100 мл микдорда вена қон томирига юборилади. Агар ўша 3%-лик эритма 33%-лик этил спиртида тайёрланиб қўлланилса самарадорлиги юқори бўлади.

- даволашнинг 1-3 кунлари молнинг ҳар 1 кг тирик вазни ҳисобига 2 мг микдорида диамидин ва 5-6 кун давомида молнинг ҳар 100 кг тирик вазни ҳисобига 6 таблеткадан (1,5 гр) делагил сув билан ичирилади.

- тейлериозни даволашда 1-3 кунлари эрталаб молнинг 1 кг тана вазни ҳисобига 4 мг/кг микдорида ўзбикарб (ўзбикарбнинг 4%-лик сувдаги эритмасидан молнинг 100 кг тана вазни ҳисобига 10 млдан тери остига) ва кечки пайт 5-6 кун давомида молнинг 100 кг тана вазни ҳисобига 6 таблеткадан (1,5 гр) делагил сув билан ичирилади;

- тейлериозни даволашда Саудия Арабистонида ишлаб чиқарилган Butachem ёки Theilex препаратларининг биридан даволашни 1-3 кунлари молнинг 100 кг тана вазни ҳисобига 5,0 млдан мушаги орасига қўлланилади;

- Adjanta pharma limited фирмаси томонидан Хиндистонда ишлаб чиқарилган Virasoon ёки Telemaks препаратларининг биридан даволашни 1-3 кунлари молнинг 100 кг тирик вазни ҳисобига 5,0 мл дан мушаги орасига қўлланилади.

- тейлериозни даволашда Ўзбекистон ва Хитой ҳамкорлигида ишлаб чиқарилган Бупачек препаратининг ҳар 100 кг тирик оғирлигига кунаро 2 марта 5мл дан мушаги орасига қўлланилади.

Тейлериоз билан касалланган молларни даволашда юқорида келтирилган махсус препаратларни қўллаш билан бир вақтда симптоматик ва гемопозтик доривор моддаларни (глюкозанинг 5%-лик эритмасидан молни 100 тана вазни ҳисобига 100 млдан вена қон томирига, кофеин бензоат натрийнинг 20% лик эритмасидан 10-20 мл дан териси остига, ҳамда диссоль, трисоль препаратларининг бирортасидан вена қон томирига 400 мл гача юборилади. Оғиз орқали 200 мл гача балик ёғи ичирилади. Гемапозни кучайтирувчи витамин В12 препаратидан 500-1000 мкг гача ёки ферропирин, тривит препаратларининг бирортасидан молнинг 100 кг тана вазни ҳисобига 20,0 млдан мушаги орасига) қўллаш муҳим аҳамиятга эга.

**Хулоса.** Қорамолларнинг тейлериоз касалликларига қарши олиб борилган даволаш-профилактика чора-тадбирлари замонавий услуб воситаларга асосланган бўлиб уни ветеринария амалиётига жорий қилиш натижасида чорвачилик хўжалиklarини қон-паразитар касалликлардан соғломлаштиришга олиб келади.

**Фойдаланилган адабиётлар руйхати**

1. Имомов Н. Тейлериозни даволашда Butachem ва Theilex препаратларининг самарадорлиги. “Зооветеринария” журнали. № 12, 2010 й., 22-24-б.
2. Гафуров А.Ф., Мавланов С.И. Қорамолларни тейлериоздан асраш. “Ўзбекистан қишлоқ хўжалиги” журнали, № 6, 2012 й., 9-10 б.
3. Гафуров А.Ф., Расулов У.И., Дўскулов В. Қорамолларни кон-паразитар касалликларидан асраш. “Зооветеринария” журнали. № 3, 2013 й., 21-24-б.
4. Гафуров А.Ф., Дускулов В. Новое в терапии и профилактике пироплазмозов крс. “Зооветеринария”, журнали. № 4, 2013 й., 21-б.
5. Юнусов Х.Б., Ибрагимов Ф.Б., Дўскулов В.М. “Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш давр-талаби”. “Озиқ-овқат маҳсулотларни хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб вазифалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 2023 й, 18-апрел. 3-7-б.

## FACTORS NEGATIVELY AFFECTING A CHILD'S PSYCHOLOGY

*O.I. Yadgarova*

*Scientific supervisor: SamDCHTI, associate professor  
Doctor of Philosophy (PhD)*

*Rashidova I.K.*

*Student: SamDCTI, faculty English language:*

**Abstract.** This article describes some factors that have a negative impact on the psyche of children. The causes and consequences of such factors are explained with examples. The article also provides an example of one of the trainings that provides psychological support to children who are under stress due to negative influences.

**Key words:** mentality, negative factors, mistrust, regular abuse, hope, confidence, training

Currently, the psyche of many children is exposed to various negative influences from different sides. However, these influences leave a deep mark on their lives and change the norms of behavior towards others. In the development of a child and his emotional sphere, a special role is traditionally assigned to the factor of interaction between parents and child in the early stages of ontogenesis. A child is a social being from the very beginning, completely unable to maintain his existence, and this process completely depends on the adults in the family, who have become the closest person to him. The need for specific methods of influencing an adult leads to the emergence of a direct emotional connection between parent and child in the process of interaction with the mother. In the process of constant contact with the child, the parent helps regulate his affective relationships with the outside world, master various psychotechnical techniques for the affective organization of his behavior, and stabilize affective processes. [3]

The negative opinion of parents or adults in the family, who play an important role in the child's holiday, serves as a factor that breaks the child's psyche.[1] One of the factors that has the strongest negative impact on a child's psyche is negative thoughts about him. Children listen very carefully to the opinions expressed by adults. Even just words have a strong impact on them. Children often want adult feedback on everything they do and are encouraged by every positive feedback they receive. If children are not valued the way they want, they may stop trying. Most parents react negatively to their child's opinions or ignore them altogether. For example: when a child expresses his dreams, he is told that he cannot achieve these things or that he cannot afford them. And this breaks the child in every way. The child's self-esteem begins to decline. Or parents do not allow their children to participate in their conversations and do not take their opinions into account. They teach their children that they cannot think. As a result, the child will not open his heart to anyone. Many parents hit their children when they don't like what they are doing. However, the child does not understand why not do this. Thus, the opinions

expressed by others polish the child. This is why we must think about every word we say. The thoughts we express can have a profound impact on the lives of others.[2]

Children are just learning to live in a world that adults already know inside and out, so it's not surprising that they sometimes ask a lot of questions about how things work. But some parents don't answer the questions their children ask, and sometimes don't pay attention at all. As a result, the child may become speechless, timid, reluctant, and isolated from the environment. This prevents the full formation of their speech and causes defects in the formation of their speech and consciousness.

The most powerful factors that have a negative impact on the child's psyche may be the following. [5]

- ❖ A harsh word;
- ❖ Distrust of them;
- ❖ Unreasonable insults;
- ❖ Injustice towards children and others;
- ❖ Divorce of parents or regular daily quarrels;
- ❖ Physical harm to a child;
- ❖ Scary things you watch on your phone or TV.

*Harsh words* have become constant and natural for children. We deprive children of free will and break their psyche by thinking that we can control their upbringing.

*We abuse* children for no reason. There's no point in regretting it later. We must immediately prevent this situation and explain that we do not blame them. A child who is bullied for no reason loses faith in the teacher and does what he thinks is right.

*Parental separation* is the most painful part of a child's psyche, it affects and changes the child every step of the way. Because now a child who is learning and adapting to life, due to the separation of his parents, will find himself in a completely different environment, and the child will face great difficulties in adapting to such conditions, and in the future pathological states in the psyche may arise.

At this stage it would be appropriate for us to recommend a psychological test carried out jointly with parents and children. The name of the training is "Emotional". This is called "support" and is carried out in the following order.

Parents and children take part in the training. The trainer invites the participants to complete the following sentence: Child: "I ..... (instead of dots there may be thoughts like "For forgetting to finish the assigned tasks" and so on) *for my feelings, many*, even members of my family may not like it," father or mother: "I love you because you are my child and you have ..... (instead of periods like "You have a pure heart, you have great talents" there can be words), he must provide psychological support to his child and cheer him up. [3] Providing such psychological support to children helps relieve stress caused by the negative impact on their psyche.

Today there is a crisis in many families. Because parents often do not understand each other and unnecessary quarrels arise. This greatly affects the psyche of children. As a result, the child may become rude and angry. In addition, technology develops along with education. Both young and old people make extensive use of telephone, computer and other technologies, and their harmful aspects have also become apparent. For example, modern children do not understand all the functions of the telephone, do not understand their tasks in life, their speech slows down, eye diseases occur, and other negative factors arise. To teach children moderation, we must first be a role model for them. By doing this, you can achieve excellent results. In conclusion, by understanding that these few things have a negative impact on the psyche of growing children, we must put an end to such situations and thereby help prevent many mental illnesses seen in children.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. U. Xamidova "Maxsus pedagogika" Toshkent. 2010 yil
2. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2005 Toshkent
3. O.I.Yadgarova., "Hissiy va ruhiy salomatlikni oshirishda psixologik treninglar" nomli uslubiy qo'llanma. – Samarqand: 2023, 125. Bet
4. O Yadgarova [.Shaxsni o'rganishda proyektiv metodikalarning afzalliklari tahlili](#). Scientific journal of the Fergana State University, 2023
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6330013>
6. Xoliqov Y. The role of ethics and education in the development of tolerance relations between uzbekistan and the nation in the process of development //International Conference on Problems of Improving Education and Science. – 2022. – T. 1. – №. 02.
7. Kholikov Y. O. MORAL ASPECTS OF NATIONAL ETHNIC IN BRINGING UP YOUNG GENERATION WITH GENEROSITY //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 7. – C. 18-21.
8. Kholikov Y. O. Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 09. – C. 48-51.
9. Kholikov, Yunus Ortikovich. "Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.09 (2021): 48-51.
10. Kholikov, Yunus Ortiqovich. "MORAL ASPECTS OF NATIONAL ETHNIC IN BRINGING UP YOUNG GENERATION WITH GENEROSITY." *Theoretical & Applied Science* 7 (2019): 18-21.
11. Xoliqov, Y. "The role of ethics and education in the development of tolerance relations between uzbekistan and the nation in the process of development." *International Conference on Problems of Improving Education and Science*. Vol. 1. No. 02. 2022.

---

## THE IMPORTANCE OF MEMORY POWER WHEN TEACHING ENGLISH TO STUDENTS

**O.I.Yadgarova**

*Scientific supervisor: SamDCHTI, associate professor  
Doctor of Philosophy (PhD)*

**R.B.Sharipova**

*Student: SamDCTI, faculty English language:*

**Abstract.** As a result of our daily rapidly changing life, the daily improvement of our daily lifestyle, students pay serious attention to learning foreign languages, especially English. However, memory plays an important role in learning foreign languages. For this reason, this article has extensively covered how necessary it is in teaching English and how to strengthen it through various effective methods.

**Key words:** remember, remember save, unite, remember fall, english, repetition, education.

Currently, raising the younger generation to be mature and perfect in all respects is one of the most difficult and responsible tasks. Here we rely both on our psychological knowledge and on pedagogical knowledge. The results of reforms in the education system have expanded the opportunities for our youth to learn foreign languages, in particular, learning English has become a favorite activity for students in preschool, secondary and higher educational institutions in our country. Today, the importance of the demand for English among students is confirmed by the decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to take activities to popularize the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a new level in Quality Conditions" dated May 19, 2021 No. PQ-5117: According to the decision:[1]

-coordinates the activities of state bodies and organizations, local executive authorities and state educational institutions to popularize the teaching of foreign languages;

- establishes connections with foreign and local partners and organizes their participation in financial, organizational and methodological support for the popularization of the study of foreign languages in the country;

- work together with ministries and departments to develop methods that allow civil servants to carry out their professional activities in foreign languages, applies in practice;

-determines comprehensive measures to popularize the study of at least ten popular foreign languages:[1]

From the above it is clear that improving the conditions for teaching foreign languages, including English, among students is one of the urgent tasks of our time. Of course, the role of memory in such matters is extremely important. After all, we cannot imagine teaching and learning English without the power of

memory. Memorization plays an important role in learning English. The role of psychological training to improve memory in increasing the efficiency and content of educational processes is extremely important, and therefore it is recommended to use such training in the process of learning a language. Let's take a closer look at the memorization process. The process of memory is a mental process consisting of recalling and, if necessary, recalling perceived things and events or past experiences. Memory activity begins with remembering perceived events. This is the memory of things and events that we previously perceived. Recollection is defined as the emergence and intensification of interest in repeating previously born thoughts, impressions and feelings. Memory is a mental process that is actively involved in all spheres of human life.

**Экономические аспекты освоения гипсов Южного Арала.** Оценочные расчеты экономической эффективности предлагаемой технологии получения гипсового вяжущего из местных сырьевых ресурсов Южного Арала показывают ее конкурентоспособность.

Потенциальный годовой объем производства гипсового вяжущего может составить порядка 500 тыс т. При общих затратах на сырьевую базу, оборудование и инфраструктуру около 60 млн долл. и себестоимости продукции не более 50 долл за тонну, чистая прибыль составит не менее 10 млн долл в год. Срок окупаемости проекта - 6 лет.

Учитывая низкую стоимость сырья, дешевую рабочую силу в регионе и возможность сбыта продукции на растущем строительном рынке южного Казахстана, можно констатировать целесообразность промышленного освоения гипсовых ресурсов Южного Приаралья.

### **ОБСУЖДЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ**

Полученные в настоящем исследовании результаты по особенностям формирования, составу и свойствам гипсовых отложений высохшего дна Южного Арала в целом согласуются с ранее опубликованными литературными данными.

Так, в работах (Завьялов и др., 2006; Мухамеджанов, 2012) также констатируется широкое развитие на обсохшем дне южной части Аральского моря вторичных гипсов, образовавшихся в результате испарительной концентрации и последующего осаждения сульфата кальция в замкнутых опресненных водоемах в условиях засушливого континентального климата современности.

Вместе с тем некоторые авторы (Бортникова и др., 2010) связывают генезис аральских гипсов не с современным этапом, а с более древними эпохами функционирования соленых палеобассейнов региона. Полученные в настоящей работе данные о составе и структурных особенностях гипсов южного Арала позволяют уверенно интерпретировать их как образования, типичные для зоны гипергенеза в аридных условиях.

Возможность практического использования гипсов аральского происхождения ранее не рассматривалась. Показанная в данном исследовании принципиальная технологическая пригодность этих гипсов для производства вяжущих является новым научным результатом, имеющим важное практическое значение.

Намеченные автором направления дальнейших исследований, связанные с более детальной геолого-экономической оценкой сырьевых ресурсов региона и разработкой эффективной технологии переработки природных гипсов Южного Приаралья, отвечают важной государственной задаче импортозамещения на рынке строительных материалов Казахстана и могут иметь значительный экономический эффект.

**Гипотезы и открытые вопросы.** Ряд вопросов генезиса гипсовых отложений Южного Арала и механизма формирования их текстурно-структурных особенностей требуют дальнейшего изучения с привлечением современных аналитических методов.

Остается открытым вопрос возможных сезонных и более долговременных изменений физико-химического режима обсыхания дна этого уникального водоема, что могло накладывать отпечаток на характер осадконакопления и форму образования гипсовых агрегатов.

Требуется проверка гипотеза о возможном существенном влиянии деятельности галофильных микроорганизмов на процесс литификации гипсов в пересыщенных соленых растворах регрессирующего гипергалинного водоема.

Комплексные минералого-геохимические и биогеохимические исследования современного осадконакопления на дне остаточных соленых озер аральской впадины могли бы пролить дополнительный свет на механизм формирования осадочных гипсов в экстремальных условиях аридного континентального климата Приаралья.

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Показано, что формирование основных скоплений вторичного гипса происходило в завершающий период регрессии Южного Арала в мелководных частях водоема в условиях аридного континентального климата из пересыщенных сульфатом кальция вод аккумуляции.

Экспериментальные исследования подтвердили возможность получения гипсового вяжущего требуемого качества из природного сырья Южного Арала по стандартной технологии его термической активации и измельчения. Показана высокая эффективность применения для затворения вяжущего



минерализованных вод самого Южного Арала, повышающих прочностные характеристики затвердевшего материала.

Расчеты экономических параметров демонстрируют целесообразность создания крупнотоннажного и экологически безопасного производства гипсового вяжущего в Приаралье с использованием современных ресурсосберегающих технологий по комплексной глубокой переработке местного минерального сырья.

Результаты проведенной работы позволяют рекомендовать следующие направления дальнейших действий для реализации потенциала природных гипсов Южного Арала:

Таким образом, результаты выполненной работы свидетельствуют о больших перспективах комплексного промышленного освоения гипсового потенциала Южного Приаралья на основе использования современных энерго- и ресурсосберегающих технологий глубокой комплексной переработки сырья.

Реализация данного проекта будет способствовать решению стратегической задачи импортозамещения на рынке гипсовых материалов Казахстана, а также социально-экономическому развитию Южно-Казахстанской области и всего региона Приаралья.

#### References

1. Арынова, М. и Клещева, С. 2021. Зеленые стандарты в гражданском строительстве. Вестник КазГАСА, 2, с. 12-19.
2. Бортникова, С.Б., Лихачева, Э.А., Рахимов, И.Р. и др. 2010. Геохимические и изотопные исследования современных осадков дна высыхающего Аральского моря. Литология и полезные ископаемые, 2, с. 194-209.
3. Джаксыбекова, Г.Е. 2021. Проблемы и перспективы гипсовой промышленности Республики Казахстан. Новости науки Казахстана, 3(153), с. 198–204.
4. Завьялов, В.А., Костина, Н.В. и Реснянский, Ю.Д. 2006. Гидрохимия и литодинамика Аральского моря в условиях регрессии. Москва: Наука. 320 с.
5. Искаков, У. и Мулдахметов, З. 2020. Комплексное освоение нетрадиционных источников гипсового сырья Казахстана. Горный журнал, 8, с.32-37.
6. Куприна, В.В. 2017. Исследование процессов твердения гипсовых вяжущих в присутствии сульфатных добавок. Вестник БГТУ им. Шухова, 8, с.7-11.
7. Ломтадзе, В.Д. 1970. Инженерная геология. Ленинград: Недра. 479 с.
8. Нерозин, Е.А. 2018. Гипергалинные озера Западного Казахстана. Алматы: Наука. 215 с.
9. Темирбекова, А.Ж. 2012. Технологическая оценка гипсов Южного Приаралья. Вестник КарГУ, No2(62), с.63-68

## POLIFONIK NUTQ ROMAN BADIYATINING ASOSI

*Maqsuda Jammato*

*Urganch davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi,  
Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD).*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada polifonik nutq va polifonik roman tushunchalari, Ulug`bek Hamdamning falsafiy mushohadaga moyilligi, yozgan asarlarida bunday nutq tiplarining maromida yuzaga chiqayotgani haqida fikr yuritiladi.

**Abstract.** This article discusses the concepts of polyphonic speech and polyphonic novel, Ulugbek Hamdam's tendency to philosophical observation, and the appearance of such types of speech in his works.

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются понятия полифонической речи и полифонического романа, склонность Улугбека Хамдама к философской наблюдательности, а также появление таких типов речи в его произведениях.

**Kalit so`zlar:** polifonik nutq, roman badiiyati, polifonik roman, falsafiy-ruhiy olam, monologik nutq, yozuvchi-roviiy nutqi.

XX asr o`zbek romanchiligida o`chmas iz qoldirgan Abdulla Qodiriy ijod maktabiga e'tibor beradigan bo'lsak, "O'tkan kunlar" asarida badiiy nutqning o'ziga xos qirralarini aks etganining guvohi bo'lamiz. Xususan, badiiy nutqning monolog, dialog va polilog ko'rinishlari Otabek va Kumush, umuman, asar personajlarida syujet liniyalarida yorqin suratlarda namoyon bo'ladi. Nutq tiplari badiiy asarning muhim komponentlaridan biri sanaladi. Chunki unda ijodiy konsepsiya maromiga yetadi. Qahramonning falsafiy-ruhiy olami, dunyoqarashi, maqsad va muddaolari nutq bilan yuzaga chiqadi. Mana shu ijodiy an'ana yangi davr romanchiligida ham mantiqiy izchillikda davom etib, asar strukturasi yagona estetik mezonning hal bo'lishida muhim bir fragmentlardan sanaladi. Yozuvchi va tarjimon, shoir va olim Ulug`bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanida polifonik nutq (ko'p ovozlilik) atroflicha o'rganilgan, lekin monografik tarzda hali adabiyotshunoslar tomonidan munosib bahosini olganicha yo'q.

"Adabiyotshunoslik lug'ati"da mazkur atamaga quyidagicha baho beriladi: "Polifoniya (yun. polys – ko'p, phone – ovoz) – musiqashunoslikdan o'zlashgan termin, M.Baxtinning "Dostoevskiy ijodi muammolari" (1929) asarida ilk bor adabiyotga tatbiqan ishlatilgan. Mazkur asarida olim F.Dostoevskiy romanning yangi tipi – "polifonik roman" yaratganini asoslab berdi. M.Baxtin talqinlariga ko'ra, Dostoevskiyga qadar yaratilgan romanlarda mallif ongi ustuvor bo'lib, qolgan hamma narsa, jumladan, qahramon shunga to'la bo'ysundirilgan. Olim buni "romanning monologik tipi", deb ataydi va undan farqli ravishda, polifonik romanning asosiy belgisi sifatida muallifning qahramonlarga nisbatan dialogik mavqeda turishi, ya'ni ularning har biri olam haqidagi o'z nuqtayi nazariga egaligi va bu nuqtayi nazarlarning har biri mustaqil holda (muallif nuqtai nazari bilan

parallel tarzda, unga bo'ysundirilmagan holda) yashashini ko'rsatadi"<sup>3</sup>. Darhaqiqat, polifonizm nutq shakllarini, asar personajlarini qanday mavqeda harakatlanishini, yozuvchi baholash va unga munosabat bildira olish manerasini ham tartiblashtiradi. Bir vaqtning o'zida yozuvchi kuzatuvchi, tahlilovchi va munosabat bildiruvchi sifatida roman badiiy olamida ishtirok etadi.

Romanda tasvir polifoniyasi xususida jiddiy tadqiqotlar olib borgan professor Y.Solijonov: "Polifonik roman, asosan, inson tafakkuri bilan ish olib boradi. Inson tafakkuri esa g'oyat murakkab bo'lib, undan bir paytning o'zida fizik, ximik, falsafiy, diniy, fiziologik tajribalar o'tkazish va kutilgan natijalarga erishish mumkin. Bunda birinchi galda uning ruhiyati yoritiladi. Tirik inson ruhiyatining murakkabligini aks ettirish polifonik roman ijodkorining birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi"<sup>4</sup>, – deya ta'kidlar ekan, masalaning murakkab jihatlariga e'tibor qaratadi. Shuni qayd etish lozimki, falsafiy-psixologik roman F.Dostoevskiy, L.Tolstoy asarlarida ko'zga tashlansa, polifonik nutq tiplari ushbu yozuvchilarning tasvirlash prinsiplarining eng yuksak nuqtasi ekanligi ayon bo'ladi. Unda bir vaqtning o'zida ham qahramon, ham yozuvchi, ham zamon ruhiyati uyg'un holda istifoda etiladi.

Yozuvchi U.Hamdamning "Sabo va Samandar" romanida polifonik nutq ikki xil ko'rinishda sodir bo'ladi: birinchisi, bevosita qahramon ruhiy evrilishlari, voqelikda harakatlanayotgan jami komponentlar inkishofida, ikkinchisi, bilvosita yozuvchining o'zi tomonidan berilgan tasvir-talqin ritmikasida. Ya'ni Samandar syujetda monologik kayfiyatda borlig'ini atrofdagi voqelikka bayon qilsa, ba'zan polifonik yozuvchi-qahramon ishtirokida roviy nuqti bilan yuzaga chiqartiriladi:

"Men baxtli muhabbatga ovoz bergan bo'lardim... Tashna odam suvga tiyiqsiz ehtiyoj ila talpinadi. Bu birinchi davr. Bu davrda tashna vujud sohibi suvning nima ekanligini butun borlig'i bilan his qiladi, idrok etadi. Galdagi – davr uning o'sha suvdan qonib-qonib ichishidir. Suvning yutilgan har qultumi uning uchun olam-olam lazzat va ma'no manbai hisoblanadi. Lekin shu yerda uning suv bilan munosabati tugaydimi? Aslo, u tashnalik vaqtida suvga bo'lgan ehtiyojini hech qachon unutmaydi: bas, hamisha suvning yonida bo'lishga, undan ayrilmaslikka tirishadi. Chunki biladiki, to tirik ekan, tashnalik ham u bilan mudom birgadir. Ishq ham unga ehtiyoj tuyganlar uchun xuddi shunday ta'sirga ega. "Oshiq va ma'shuq munosabatlari to'shakda yakun topadi", degan gap hammaga taalluqli emas. Olovli ishq haroratini to'shak pasaytirsa-da, muhabbatning ruhiy tarafiga daxl qilolmaydi. Qaytaga, u bunday munosabatlar zamirida shakllanib, toblanib, o'zini yaxshiroq tanib oladi. To'shak faqat tanalar ehtiyojinigina qondirishi, misdek qizib turgan vujudlarni muloyimlashtirishi, iztiroblarini kamaytirishi mumkin. Ko'rinadiki, oshiq va mash'uqning nafaqat hissiy darajalari, balki ma'naviy saviyalari ham bir bo'lsa, hech qanday "to'shak" ularning muhabbatlariga raxna sololmaydi"<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Qurbonov D. va boshq., Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'ati. - T.: "Akademnashr", 2010. –164-165.

<sup>2</sup> Solijonov Yo'ldosh. XX asrning 80-90 yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. dok.diss. –T. 2002. –B.267.

<sup>3</sup> Ulug'bek Hamdam. Sabo va Samandar. –T.: "O'zbekiston", 2011. –B. 248-249.

Mazkur nutqda bir qarashda oliy ta'limda dars beruvchi o'qituvchi – Samandarning, ikkinchidan, o'zining munosabatini goh to'g'ridan-to'g'ri ifodalab beradigan yozuvchi U.Hamdamning, uchinchidan, bugun global axborot olamida istiqomat qilayotgan zamonaviy insonning, to'rtinchidan, har qanday moddiy o'lchovlardan balandda turadigan oshiqning ko'p ovozi nutqi uyg'unlashib, "ko'zga ko'rinmas yana bir suratsiz" kishining savollari, mushohadalari uyg'unlashib, syujet tarqoqligini oldini olishga barham beradi. Natijada, Samandar va zamon, atrof-javonibdagi turli xil qatlamlarning ehtiyojiga munosib baho berish imkoni tug'iladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti davrida zamonaviy insonning talabi va matlabi ham – boylik orttirish hamda nafsning ehtiyojini qondirishdir. Lekin "Sabo va Samandar"da yozuvchi U.Hamdam qahramonlarni ikkiga bo'lib tashlaydi. Dunyo havaslari ketidan quvgan, moddiy olamni birinchi o'rinda ko'ruvchi, ikkinchidan, ma'naviy-ruhiy hayotni sevuvchi kishilar tipiga. Ana shu qarama-qarshiliklar Samandarning ishq haqidagi tushunchalariga, ularning ro'yobga chiqishiga xalaqit beradi. Savol tug'iladi: nega Layi va Majnunning taqdiriga aloqador sahnalarda Sabo va Samandar xarakteri ochiqdan, ikki olam bir-biriga muqoyasa qilinadi? Yozuvchi buni zamonaviy kishi ruhiyatida mol-dunyoga havas qo'yib, o'ta pragmatik yashashni afzal bilgan odamlar ruhiyatini ochib berishni asl maqsadi. Provvard natijada Sabo va Samandar halok bo'lishi oqibatida xulosalashga yetaklaydi. Har ikkala oshiq-ma'shuqa o'zlariga hayot deb berilgan ne'matni: ko'ngil va ruh olamining mevasi deb biladi. Oqibat har ikki oshiqning fojeali yakun topishiga olib keladi. Mana shu jihatlar yozuvchining polifonik nutq tabiatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar sintezini yanada asoslashga keng imkon beradi:

“” – Sen – mening Ka'bamsan!..

– Sen – mening!..

– Sensiz – hayotni tasavvur qilolmayman!..

– Sensiz – hayotning o'zi yo'q!..

– Seni ko'rdim-u dunyoga nega kelganim ayon bo'ldi!..

– Men esa seni, faqat seni ko'rish uchun dunyoga keldim...

Sabo va Sandarning suhbatlari shunday boshlanib, shunday davom etib, shunday adoqlanardi. Shu hollarida ular bu dunyoning odamiga sira o'xshamasdi. Ular uchun bir-birlaridan o'zga kishi ham, dunyoning o'zi ham yo'q edi go'yo. Faqat Sabo bor edi, yana Samandar! Bo'ldi!..

Sen bo'lsangu men jahonda mavjud,

Bo'lsa yana koinot nobud... (A.Navoiy)

Ehtimol, ayni shu yerda bir hikmat yashirinib yotgan bo'lsa, ajabmas...”<sup>6</sup>

Mana shu polifonizm negizida qahramon Sabo va Samandar, yozuvchi-roviiy nutqi uyg'unlashib, ko'p ovozlilikni yuzaga chiqarishga zamin hozirlamoqda. Mavjudlik bu Navoiy ham o'zining munosabatini bildirib, azaliy ishq haqida mangu iztirobni so'zlab berayotgandek. Moziy va zamoni birlashtirib turgan yangi makon kishilari o'z-o'zlariga yashashning oltin qoidasi ishqdan boshqa najot

<sup>4</sup> Hamdamov U. Sabo va Samandar. –T.: “O'zbekiston”. 2011. –B. 139-140.

yo'qligini tushuntirib-tasdiqlayotgandek. Ayni paytda, insoniy iroda va yashash mantiqi faqatgina MAVJUDLIK JUMBOG'INI anglatishga qaratilayotgandek. To'g'ri mana shu yerda qahramonlar o'zaro bir-birilarining xilma-xil qarashlarini tasdiqdan to'kazadi. Bu nutq tipi M.Baxtin ta'kidlaganidek, "dialoglashgan ovozlarning yig'indisidan iborat" ekanligi o'z tasdig'ini topadi.

"Polifonik romanning ikkinchi bir xususiyati undagi qahramonlarga xos tafakkur oqimining uzluksizligidir. Bunday asarlarda avtor ham, qahramon ham o'quvchi yoki o'z-o'zi bilan tinimsiz bahslashadi, bemalol savol- javob qiladi, munozara uyushtiradi. Bunda ba'zan yagona qiyofa go'yo ikki tomonga ajralgandek bo'ladi va bir-biriga qarama-qarshi fikr- mulohazalarni ilgari suradi, bu bilan avtorning bosh g'oyasini to'laroq ochishga ko'maklashadi. Polifonik romanlarda ko'pincha avtor bilan qahramon o'rtasida chinakam tenglik alomatlari sodir bo'ladi. Bu jihatdan polifonik romanga xos nutq strukturasi monologik nutqdan qahramonlarning mustaqil va o'ziga xos fikrlashi, ichki erkinlikka ega bo'lishi, ba'zi paytlarda o'zini dunyoga keltirgan avtor baholari hamda qarashlariga ham qo'shilavermasligi, ijobiy ma'nodagi sarkashligi (o'jarligi) bilan farq qiladi"<sup>7</sup>. Haqiqatdan ham, "Sabo va Samandar" romanida yozuvchi barcha qahramonlarning erkin hayotini ta'minlaydi. Zo'rama-zo'raki ularning ruhiy olamiga kirib, o'z hukmini o'tkazishda imkon qadar tiyilib ish ko'radi. Chunki Samandar ko'ngil kishisi. U fasllar o'zgarishi kabi turlanib, tuslanib ming xil qiyofada o'zini namoyon etmaydi. Chunki u bitta fe'l-atvorga ega. Pul, mansab, boyluk martabalaridan balandga ko'tarilgan, haqiqiy ishq savodosi bilan yongan o'qituvchi. Unga qanchalar imkoniyat berilmasin, pokiza qalbiga gard yuqtirishni hech qachon hayot a'moliga aylantirishga urinmaydi.

Xulosa qilib aytgandigan bo'lsak, polifonik nutq va polifonik roman boshqa-boshqa tushunchalardir. Lekin U.Hamdanning falsafiy mushohadaga moyilligi, yozgan asarlarida bunday nutq tiplarining maromida yuzaga chiqayotganini his qilamiz. Polifonizm hodisasi "Sabo va Samandar"da "moziyga qaytib ish ko'rmoq" muhimligini ifodalasa, Navoiy, Qodiriyning ishq-muhabbat haqidagi, qadim folklor an'analarni sintezi yaqqol yuzaga chiqadi. Unda yangi zamon kishisi hal etishi mumkin bo'lgan, barcha moddiy narsalarning oxir-oqibat o'lchovi azaliy muhabbatdir degan xulosani bermoqchi bo'lganligida qabarib ko'rinadi. Yozuvchi ushbu romanda Sabo va Samandarning nutqiy munosabatlarini alohida (tush, maktub, uchrashuv) motivlar fonida namoyish qiladi. Har ikkala qahramonning muhabbat tushunchasiga munosabati – bitta nuqtada jamuljam. Chunki ular har bir masalaning yonida ISHQ turmog'ini hayot shioriga aylantiradi. "Eng go'zal va pokiza xilqat" ishq va undan boshqa ma'vo yo'qligini butun ruhiy iqlimida "qayta-qayta" kashf etishdan sira charchash bilmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir epizodga nutqiy polifonizm juda o'rni-o'rni bilan moslashtirilib tanlanadi. Romanning yigirmaga yaqin o'rinlarida, ayniqsa, ikkinchi qismda bunday tuniq tiplari syujet voqyeligining mustahkam tasvirlovchi asosi sifatida yuzaga qalqib

<sup>5</sup> Solijonov Y. Adabiyot xiyoboni. Maqolalar, suhbatlar. –:Farg'ona. 2020. –B.60.

chiqadi. Demak, F.Dostoevskiy boshlab bergan polifonik tafakkur tipi o'zbek adabiyotida keyingi yillarda yozilayotgan romanlarda har xil tovlanishlarda aks etayotgani fikrimizning yorqin dalili desak, xato bo'lmaydi. Negaki, global va postmodern dunyoda tafakkur qilish va uni ifodalash prinsiplari yangi davr romanchiligida hikoyat va rivoyat shakllarining yangi moduslarga evrilib borayotganligini to'laqonli dalolatlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Quronov D. va boshq., Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'ati. –T.: “Akademnashr”, 2010.
2. Solijonov Yo'ldosh. XX asring 80-90 yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. dok.diss. –T. 2002.
3. Ulug'bek Hamdam. Sabo va Samandar. –T.: “O'zbekiston”, 2011.
4. Solijonov Y. Adabiyot xiyoboni. Maqolalar, suhbatlar. –:Farg'ona. 2020.

## TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN 3D TAHRIRLOVCHI DASTURLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*G'afurova Nodira Yuldashevna, Sobirova Shaxnoza*  
*Xorazm viloyati Urganch shahar 1-son kasb-hunar maktabi*

Kompyuter texnologiyalari orasida uch o'lchamli grafika va animatsiya alohida o'rin egallaydi. Professional dasturlar bozorida tijoriy dasturlar hali ham yetakchilik qilmoqda, ammo 3d muharrirlari orasida bepul dasturlarning keng tanlovi mavjud.

Zamonaviy sanoatda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda, ko'plab tashkilot va firmalar 3D modellashtirish paketlari bilan ishlashi mumkin bo'lgan mutaxassislariga muhtoj.

Tadqiqotimizning maqsadi o'quv dasturiy ta'minotiga bo'lgan talablarni aniqlash, o'quv jarayoni uchun eng qulay bo'lgan 3d tahrirlovchilar xususiyatlarini tahlil qilish.

3D belgisi inglizcha "threedimensions" so'zidan olingan bo'lib, - uch o'lcham, ya'ni, uch o'lchovli fazo degan ma'noni beradi. 3D muharrirlari va 3D grafika tushunchasi XX asrning 90-yillarida paydo bo'lgan, keyin uchinchi o'lcham - hajm yaratish mumkinligi ma'lum bo'ldi. Bunday kashfiyotni faqat ob'ektning barcha xususiyatlarini aks ettira olgan fazoviy tasavvurga ega bo'lgan odamgina qila olgan.

Shunday qilib, mavjud ikkita koordinatali o'qlar uchinchi mezon bo'lgan chuqurlik bilan, ya'ni, "Z" o'qi bilan to'ldirildi. Eng yorqin tadqiqotchilardan biri Ivan Sazerlend edi. U 1961 yilda Massachusetts texnologiya institutining endigina aspiranti edi. Sazerlend Sketchpad dasturini ishlab chiqdi, uning yordamida oddiy uch o'lchamli tasvirlarni qurish mumkin edi.

Aspirantga eng yaxshi talabalari - Ed Ketmull va Jim Blinn yordam berishdi. Ketmull, rahbari Ivan Sazerlend boshchiligida, dastlabki fazoviy obyekt – o'z qo'lini modellashtirdi. Jim Blinn uch o'lchamli shakllarni harakatlantirib 3D animatsiya tushunchasini kiritdi.

Bugungi kunda 3D grafika va 3D animatsiyalarni yaratishga ixtisoslashgan juda ko'plab dasturiy mahsulotlar mavjud. Bunday dasturlarning ko'pligidan keraklisini tanlash juda mushkul.

Buning uchun, avvalo, 3D muharrirni nima maqsadda foydalanishimizni aniqlab olishimiz zarur. Bizning holatlarimizda bu o'quv jarayonida qo'llaniladi. 3D grafika o'qituvchi tomonidan namoyish qilish materiallari sifatida ishlatilishi mumkin. Boshqa tomondan, talabalar 3D tahrirlovchilarni o'rganishi va ulardan ob'ektlar modellarini yaratishda foydalanishlari mumkin.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan 3d-tahrirlovchilar quyidagi talablarni qanoatlantirishi lozim:

1. Minimal moliyaviy xarajatlar.

Bepulligi, erkin tarqatilishi, bizning fikrimizcha, dasturiy vositani tanlashning eng muhim mezonlaridan biridir. Birinchidan, har bir ta'lim muassasasi byudjeti

3D muharriri uchun ortiqcha litsenziyani sotib olishga qodir emas. Ikkinchidan, uyda 3D muharririda mashq qilish imkoniyatiga ega bo'lish juda qulay va samarali.

## 2. Kompyuter tizimiga qo'yiladigan talablar.

Kompyuter biron bir dasturiy ta'minotdan foydalanishi uchun unga mos kelishi kerak bo'lgan naunaviy tavsiflar. Ushbu xarakteristikalar apparat vositalarga (protessor turi va chastotasi, RAM xajmi, qattiq disk hajmi) va dasturiy muhitga (operatsion tizim, o'rnatilgan tizim komponentalari va xizmatlarining mavjudligi va boshqalar) bo'lgan talablarni tavsiflashi mumkin. Odatda, bunday talablar ishlab chiqaruvchi yoki dastur muallifi tomonidan tuziladi.

## 3. Boshqa grafik paketlar bilan muvofiqligi.

Boshqa paketga qo'shimcha to'ldiruvchi bo'lish qobiliyati to'laqonli 3D modelni yaratish uchun juda muhim hisoblanadi. Hatto eng professional 3D muharrirlari ham modelni to'liq realizm bilan ta'minlay olmaydilar va shuning uchun ba'zan boshqa muharrirlardan yechim izlashga to'g'ri keladi. Bunday vaziyatlarda dasturning boshqa paketlar bilan muvofiqligi qo'l keladi.

## 4. Kasbiy faoliyatda olingan ko'nikmalarni ishlatishga yo'naltirish.

O'qitish uchun tanlangan muharrirlar professional muharrirning asosiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak, zero, ularda ishlash qobiliyati kelajakda ishga joylashishda ustunlik qilishi mumkin

Ta'lim sohasida foydalanish uchun mos bo'lgan dastur tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan yuqoridagi talablarni hisobga olgan holda, biz 3D muharrirlarning eng keng tarqalgan turlarini (1-rasm) tahlil natijalari quyidagilar.



*1-rasm. 3D muharrirlarning eng keng tarqalgan turlari.*

Yuqoridagi dasturlar xususiyatlariga qarab quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1. GoogleSketchup, Wings3d, SweetHome 3D, SculptrisAlpha 6 dasturlari eng sodda va qulay interfeysga ega;

2. GoogleSketchup, Blender, Wings3d, SweetHome 3D, SculptrisAlpha 6 dasturlari shaxsiy kompyuterga minimal talablarni qo'yadi;

3. GoogleSketchup, Autodesk 3ds Max, Autodesk Maya, Blender, Wings3d dasturlari boshqa paketlar bilan muvofiq ishlaydi;



4. SweetHome, 3D Wings3d, GoogleSketchup, Blender dasturlari grafika bilan minimal ishlash qobiliyatiga ega talabalar uchun mos keladi.

5. Blender, Autodesk 3ds Max, Autodesk Maya, КОМПАС-3D dasturlari professional tarzda 3D modellashtirishda qo'l keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Большаков, В. 3D-моделирование в AutoCAD, КОМПАС-3D, SolidWorks, Inventor, T-Flex / В. Большаков, А. Бочков, А. Сергеев. - М.: Книга по Требованию, 2010. - 336 с.
2. Голованов, Н.Н. Геометрическое моделирование / Н.Н. Голованов. - М.: [не указано], 2002. - 630 с.
3. Осипа, Дж. 3D-моделирование и анимация лица. Методики для профессионалов / Дж. Осипа. - М.: Диалектика, 2008. - 400 с.
4. Прахов, А. Blender. 3D-моделирование и анимация. Руководство для начинающих / А. Прахов. - М.: БХВ-Петербург, 2009. - 272 с.

## MALAY TILIDA TUB FE'LLARDAN YANGI SO'ZLARNING YASALISHI VA ULARNING MA'NOSIGA KO'RA QO'LLANILISHI.

*Sabariah Sulaiman*

*Sulton Idris Pedagogika Universiteti, Ph.D*

*Tanjong Malim, Perak, Malaysia*

*Toshpulatova Zarnigor*

*Toshkent davlat sharqshunoslik*

*Universiteti, o'qituvchi-stajori*

**Annotatsiya.** Ilmiy maqolada malay tilidagi tub o'timli fe'llardan so'z yasalishi tushunchasi, so'zning gaplarda qo'llanilishi va gapdan kelib chiqadigan ma'nolar misollar orqali tahlil. Ushbu tadqiqotning diqqat markazida meN-prefiksini qabul qiluvchi fe'llar (me-, mem-, men-, meng-, meny-). meN- affiksi malay tilidagi juda mahsuldor fe'l affiksidir (Asmah 2009). Bu affiks so'zning ma'nosi va so'z turkumi o'zgartiruvchi vazifasini ham bajaradi, *masalan, ekor* so'zi *mengekor* fe'l turkumiga aylangan. Ammo, faqatgina fe'l so'z turkumiga emas balki, boshqa so'z turkumlariga ham qo'shilib, boshqa turkum doirasidagi so'zlar hosil qiladi. Masalan, *hijau* so'zi sifat so'z turkumida bo'lib, *menghijau* ga o'zgarib sifatdan fe'l yasashga ham xizmat qiladi, shuning uchun ham ushbu qo'shimchani gaplarda qo'llashda extiyot bo'lish lozim. Shuningdek, maqolada -an qo'shimchasi va pe- prefiksi bilan qo'shilganda hosil bo'ladigan so'z yasalishi ham tahlil qilingan. Chet ellik o'quvchilar orasida malaycha so'zlardan foydalanishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun ushbu maqolasa aynan so'z yasalishiga asosiy urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z yasalishi, tub fe'l, meN- va pe- prefiksi, -an qo'shimchasi, malay tilidagi so'zlar, xorijiy til o'rganuvchilar.

**Аннотация.** В научной статье на примерах анализируются понятие словообразования от основных переходных глаголов в малайском языке, употребление слова в предложениях и значения, полученные из предложения. В центре внимания данного исследования находятся глаголы с приставкой meN- (me-, mem-, men-, meng-, meny-). Аффикс meN- — очень продуктивный глагольный аффикс в малайском языке (Asmah 2009). Этот аффикс также действует как модификатор значения слова и группы слов, например, слово *ekor* превратилось в группу глаголов *mengekor*. Однако не только глагол присоединяется к группе слов, но и к другим группам слов и образует слова внутри другой группы. Например, слово *hijau* принадлежит к группе прилагательных, и его можно заменить на *menghijau*, чтобы образовать глагол от прилагательного, поэтому следует быть осторожным при использовании этого суффикса в предложениях. Также в статье анализируется образование слов, образованных добавлением суффикса -an и приставки pe-. Чтобы избежать ошибок в употреблении малайских слов

среди иностранных студентов, в данной статье основное внимание уделяется словообразованию.

**Ключевые слова:** словообразование, основа глагола, префиксы meN- и pe-, суффикс -an, малайские слова, изучающие иностранный язык

**Abstract.** In the scientific article, the concept of word formation from basic transitive verbs in the Malay language, the use of the word in sentences and the meanings derived from the sentence are analyzed through examples. The focus of this study is on verbs that take the prefix meN- (me-, mem-, men-, meng-, meny-). The affix meN- is a very productive verb affix in Malay (Asmah 2009). This affix also acts as a modifier of word meaning and word group, for example, the word ekor has become a verb group mengekor. However, not only the verb is added to the word group, but also to other word groups and forms words within another group. For example, the word hijau belongs to the adjective group, and it can be changed to menhijau to form a verb from an adjective, so you should be careful when using this suffix in sentences. The article also analyzes the formation of words formed by adding the suffix -an and the prefix pe-. In order to avoid mistakes in the use of Malay words among foreign students, this article focuses on word formation.

**Keywords:** word formation, single verbs, the prefix meN- and pe-, the suffix -an, Malay words, foreign learners.

Asmah Umarga tadqiqotiga ko'ra, so'z yasalishi - so'zlarning yasalish usuli; yoki so'zning yaratilish jarayonida o'tadigan jarayon hisoblanadi. So'z ikki manbadan, ya'ni (i) so'zning o'zidan, asosidan kelib chiqadi va (ii) ma'lum bir jarayon orqali shakllanadi. Malay tilida so'z yasalishi morfologiya sohasida muhim jihat hisoblanadi. So'zlarning shakllanishi orqali ko'plab so'zlar paydo bo'ladi va so'zlovchining ma'noni to'g'ri yetkazish ehtiyojlarini qondiradi.

Prefiks qo'shimchasi variantlarini o'zlashtirishdagi kamchiliklar o'quvchilar tomonidan tuzilgan morfologik xatolar, imlo va grammatik bo'lmagan gaplarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning qo'shimchani sust o'zlashtirishlari natijasida malay tili grammatikasi qoidalarini ochiqdan-ochiq buzuvchi yangi atama yasagan. Shuning uchun nomaqbul deb topilgan xatolar o'quvchilarning affikslarni to'g'ri affiksatsiya tizimiga murojaat qilmasdan, boshqa asosiy malay tilidagi so'zlar bilan o'zboshimchalik bilan qo'shib qo'yishiga sabab bo'lishi sababli yengil qabul qilinadi.

Ushbu tadqiqot faqat meN- prefiksiga qaratilgan, chunki meN- prefiksi nahu-malay tilida eng samarali affikmdir (Nik Safiah Karim, Farid M. Onn, Hoshim Hoji Musa & Abdul Hamid Mahmud, 2015; Nurul Huda & Nor Hashimah, 2020). Faol fe'llarni hosil qiluvchi meN- prefiksining to'rtta varianti mavjud, ya'ni me-, mem-, men- va meng-. Variantning paydo bo'lishi meN-variantiga qo'shilishni istagan asosiy so'zning birinchi harfiga bog'liq. Shuningdek, bu ishda yakka fe'lning hosil bo'lgan otga -an qo'shimchasi qo'shilishi va hosila otlarga pe- old qo'shimchasi qo'shilishi bilan kiritilgan barcha tuzilgan so'zlar ularning ma'nosini ko'rsatadigan gaplarda yoziladi.

1-jadval

*pembentukan kata berdasarkan kata kerja tunggal*  
 1-jadvalda tub o'timli fe'llarga qo'shimchalar qo'shilishi orqali yangi so'zlarning  
 hosil bo'lishi tahlil qilingan:

1. lukis (melukis/lukisan/pelukis)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Feruza **melukis** gambar.
- ii. **Lukisan** Feruza cantik.
- iii. Feruza seorang **pelukis**.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

- i. Feruza rasm **chizyapti**.
- ii. Feruzaning **rasmi** chiroyli.
- iii. Feruza **rassomdir/ kasbi raassom**

2. makan (memakan/makanan/pemakan)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

		Prefikslarni qo'shish bilan so'z yasash (me/mem/men/meng/meny+fe'l)	Yasama fe'l So'z (asos+an)	ot (pe+asos)
1	lukis	melukis	lukisan	pelukis
2	makan	memakan	makanan	pemakan
3	potong	memotong	potongan	pemotong
4	tonton	menonton	tontonan	penonton
5	basuh	membasuh	basuhan	pembasuh
6	bawa	membawa	bawaan	pembawa
7	baca	membaca	bacaan	pembaca
8	beli	membeli	belian	pembeli
9	cari	mencari	carian	pencari
10	jual	menjual	jualan	penjual
11	ajar	mengajar	ajaran	pengajar
12	ikat	mengikat	ikatan	pengikat
13	hantar	menghantar	hantaran	penghantar
14	sepak	menyepak	sepakan	penyepak
15	semak	menyemak	semakan	penyemak

- i. Kucing itu **memakan** tikus.
- ii. Tikus ialah **makanan** kucing.
- iii. Kucing, haiwan **pemakan** tikus.

- i. Bu mushuk sichqoni **yedi**.
- ii. sichqon mushukning **taomi** hisoblanadi.
- iii. Mushuk, sichqon **yeyuvchi hayvon** hisoblanadi.

3. potong (memotong/potongan/pemotong)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Tukang kayu **memotong** kayu.
- ii. **Potongan** kayu itu hendak dibuat bingkai gambar.
- iii. Dia seorang **pemotong** kayu yang mahir.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

- i. Usta yog'och **kesayapti**.
- ii. **Kesilgan yog'ochdan** surat ramkasi yasalishi lozim.
- iii. U mohir yog'och **kesuvchidir**

4. tonton (menonton/tontonan/penonton)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu  
Semalam kami **menonton** wayang.  
i. Wayang **tontonan** itu sangat menarik.  
ii. Ramai **penonton** turut menonton dalam panggung wayang itu.

5. basuh (membasuh/basuhan/pembasuh)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu  
i. Puan Siti mahu **membasuh** pakaian.  
ii. Dia masukkan **basuhan** ke dalam mesin basuh.  
iii. Selepas itu, dia memasukkan sabun **pembasuh** pula.

6. bawa (membawa/bawaan/pembawa)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu  
i. Para penumpang dibenarkan **membawa** beg ketika menaiki kapal terbang.  
ii. **Bawaan** yang melebihi 23 kilogram beratnya akan dikenakan bayaran tambahan.  
iii. Peraturan ini perlu dipatuhi oleh semua **pembawa**.

7. baca (membaca/bacaan/pembaca)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu  
i. **Membaca** adalah amalan mulia.  
ii. Terdapat pelbagai bahan **bacaan** dalam pasaran.  
iii. **Pembaca** perlu bijak memilih bahan bacaan yang sesuai.

8. beli (membeli/belian/pembeli)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu  
i. Ramai orang suka **membeli** barang di Pasar raya Bintang.  
ii. **Belian** yang mencecah dua ratus ringgit akan mendapat diskaun.  
iii. Tawaran ini menarik hati **pembeli**

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek  
i. Kecha biz wayang teatrini **tomosha qildik**.  
ii. Bu wayang **tomoshasi** juda qiziqarli.  
iii. Ko'plab **tomoshabinlar** kinoteatrda kino tomosha qilishadi.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek  
i. Siti xonim kiyimlarini **yuvishni** xoxlayapti.  
ii. U **yuviladigan kiyimlarni** kir moshinaga soldi.  
iii. Shundan so'ng, u kir **kuvish kukinini** soldi.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek  
i. Bir qancha yo'lovchilarga samolyotga yuklarini **olib borishlariga** ruxsat berildi  
ii. 23kg dan yuqori bo'lgan **yuk buyumlariga** qo'shimcha to'lov qilinishi shart.  
iii. Ushbi qoida barcha **yuk tashuvchilar** tomonidan amal qilinishi lozim.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek  
i. Kitob **o'qish** yaxshi amal hisoblendi.  
ii. i. Bozorda turli xil **o'qish** materiallari mavjud.  
iii. **Kitobxon** mos o'qiv materialini oqilona tanlay olishlari kerak.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek  
i. Ko'pchilik odamlar Bintang supermarketida tovarlar **sotib olishni** yaxshi ko'radi.  
ii. 200 ringgitga yetgan **xaridlar** chegirmaga ega bo'ladi.

untuk membeli di situ.

9. cari (mencari/carian/pencari)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Ada banyak cara untuk **mencari** kerja selepas tamat belajar.
- ii. Antaranya membuat **carian** secara dalam talian.
- iii. Selain itu, terdapat banyak agensi yang boleh membantu para **pencari** kerja.

10. jual (menjual/jualan/penjual)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Kami pergi ke bazar untuk menjual buah-buahan.
- ii. Di sana, kami melihat para **penjual** sedang sibuk **menjual** barang **jualan** mereka.

11. ajar (mengajar/ajaran/pengajar)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Ibu sering **mengajar** saya untuk menghormati orang tua.
- ii. **Ajaran** ibu selalu saya amalkan.
- iii. Kini saya bertugas sebagai seorang **pengajar** dan mengajar pelajar-pelajar untuk menghormati orang tua.

12. ikat (mengikat/ikatan/pengikat)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Bapa **mengikat** kayu itu dengan tali.
- ii. **Ikatan** itu nampak kemas kerana tali **pengikat** yang digunakan berkualiti tinggi.

13. hantar (menghantar/hantaran/penghantar)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Ahmad bekerja sebagai **penghantar** makanan.
- ii. Setiap hari dia keluar **menghantar** makanan yang dipesan oleh pembeli melalui aplikasi *Food Panda*.
- iii. Dia selalu bekerja lebih masa kerana mahu mengumpul wang **hantaran** perkahwinannya.

iii. Ushbu taklif **xaridor**larni u yerdan savdo qilishga jalb qiladi.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

i. O'qishni tugatgandan so'ng ish **topishning** ko'plab usullari mavjud.

i. Ular orasida Internetda **qidirish** mavjud.

iii. Bundan tashqari, ish **izlovchilarga** yordam beradigan ko'plab agentliklar ham bor.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

i. Biz bozorga mevalarni **sotish** uchun bordik.

ii. U yerda **sotuvchilar** o'z mahsulotlarini sotish bilan bandligini ko'rdik

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

i. Onam menga doim kattalarni hurmat qilishni **o'rgatgan**.

i. Men doim onamning **o'gitlariga** amal qilaman.

iii. Hozir men **o'qituvchi/ t'alim beruvchi** bo'lib ishlayman va talabalarga kattalarni hurmat qilishni o'rgataman.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

i. Ota tayoqni arqon bilan **bog'ladi**.

ii. **Bog'lam** chiroyli ko'rinadi, chunki ishlatilgan **tasmalar** yuqori sifatli.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

i. Ahmad oziq-ovqat **yetkazib beruvchi** bo'lib ishlaydi.

ii. U har kuni "Food Panda" ilovasi orqali mijozlar buyurtma qilgan taomlarni **yetkazib berish** uchun chiqadi.

iii. To'yi **sarpolariga** pul yig'moqchi bo'lgani uchun u doim ortiqcha

ishlayapti.

14.sepak (menyepak/sepakan/penyepak)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Pemain itu sedang **menyepak** bola.
- ii. **Sepakan** pemain itu sangat kencang.
- iii. Dia seorang **penyepak** bola yang handal.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

- i. O'yinchi to'pni **tepmoqda**.
- ii. Futbolchining **zarbasi** juda kuchli bo'ldi.
- iii. U yaxshi **futbolchi**

15.Semak (menyemak/semakan/penyemak)

Contoh ayat dalam bahasa Melayu

- i. Guru sedang **menyemak** tugas pelajar.
- ii. Hasil **semakan** mendapati rata-rata pelajar mendapat markah lulus.
- iii. Siapakah **penyemak** tugas ini? tanya Pengetua sekolah.

Terjemahan ayat dalam bahasa Uzbek

- i. O'qituvchi talabalarning topshiriqlarini **tekshiradi**.
- ii. **Tekshiruv** natijasi shuni ko'rsatdiki, o'rtacha talaba o'tish bahosini olgan.
- iii. Ushbu topshiriqning **sharhlovchisi** kim? – deb so'radi maktab direktori.

Ko'rsatilgan barcha misol jumlariga asoslardan holda, fe'l asosli so'zlarning shakllanishi bo'yicha ba'zi xulosalar chiqarish mumkin.

Birinchidan, tub fe'llar va meN- prefiksi (me-/mem-/men-/meng-/meny-) harakat/fe'l qilishni anglatadi.

Ikkinchidan, birlik fe'l qo'shimchasi (-an) qo'shimchasi biror narsa / ot nomining ma'nosini anglatadi.

Uchinchidan, birlik fe'llar va prefiks (pe-) ish/ism bajaradigan odamlar yoki vositalarni bildiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, malay tilidagi so'zlarning shakllanishida affikslarning to'g'ri qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. To'g'ri affiksni aniqlashdagi xato ma'noda xatolikka sabab bo'ladi. Shunga ko'ra, malay tilini o'rganayotgan chet ellik talabalar gapirish yoki yozishda ma'noda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun affikslardan foydalanish usulini tushunishlari kerak..

### References

1. Anne Jeffrey Kihob & Saidatul Nornis Mahali. 2021. Penguasaan murid tentang penggunaan imbuhan MeN-, di- dan BeR- dalam penulisan karangan respons terbuka. MANU. 32 (2), 89-110.
2. Asmah Omar. 2015. Nahu Melayu Mutakhir. Edisi Kelima. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
3. Nik Safiah Karim, Farid M. Onn, Hashim Haji Musa & Abdul Hamid Mahmood. 2015. Tatabahasa Dewan Edisi Ketiga. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
4. Pusat Rujukan Persuratan Melayu @PRPM. <https://prpm.dbp.gov.my/>

**IKKITA BELGILI O'ZGARUVCHILAR UCHUN BINOMIYAL  
 TAQSIMOT YORDAMIDA QURILGAN KVADRATIK STOXTASTIK  
 OPERATORLAR**

*M.A.Sharapova*  
*QarDU professori*

*O.Sh.Xurramov*  
*QarDU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Agar Avloddan avlodga o'tish qoidalarini Mendel qoidalarini qanoatlantirsa, bu qoidalar yordamida qurilgan kvadratik operatorlar Mendel kvadratik operatorlar deyiladi. Bir nechta kvadratik operatorlar yordamida qurilgan modellarni qaraymiz.

**Kalit so'zi:** Kvadratik stoxastik operator. Graflar. Allel. Genotiplar. Mendel kvadratik operatorlar. Simpleks.

Faraz qilaylik  $(\Lambda, L)$  karrali qirrasiz davriysiz chekli graf bo'lsin. Bu yerda  $\Lambda$  - grafning uchlari to'plami va  $L$  - qirralar to'plamidir.

$\Phi$  - esa allellar to'plami deb ataluvchi qandaydir chekli to'plam bolsin. Akslantirish  $\sigma: \Lambda \rightarrow \Phi$  katak deb ataladi.  $\Omega$ - orqali hamma kataklar fazosini belgilaymiz va  $S(\Lambda, \Phi)$  to'plam  $\Omega$  chekli to'plamda berilgan hamma ehtimolli taqsimotlar to'plami.  $S(\Lambda, \Phi)$  simpleksni o'zini o'ziga akslantiruvchi kvadratik stoxastik operator quydagi ko'rinishda aniqlanadi.  $\Lambda_i$  -lar  $(\Lambda, L)$  ,grafning hamma bog'liq bo'laklari to'plamidir,  $i=1,2,3,\dots,n$ . Ixtiyoriy ikkita katak uchun  $\sigma_1, \sigma_2 \in \Omega$

$$A(\sigma_1, \sigma_2) = \{x \in \Lambda : \sigma_1(x), \sigma_2(x)\} \text{ va } \hat{A}(\sigma_1, \sigma_2) = \bigcup_{j: \hat{A}(\sigma_1, \sigma_2) \cap \Lambda_j \neq \emptyset} \Lambda_j$$

Agar  $\hat{A}(\sigma_1, \sigma_2) \neq \emptyset$  bo'lsa, u holda  $\Omega(\Lambda, \hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)) = \left\{ \sigma \in \Omega : \sigma_{\hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)} = \sigma_{1\hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)} \text{ yoki } \sigma_{\hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)} = \sigma_{2\hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)} \right\}$ ,  $\hat{A}(\sigma_1, \sigma_2) \neq \emptyset$  bo'lgan hol uchun

$$\Omega(\Lambda, \hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)) = \left\{ \sigma \in \Omega : \sigma_{\Lambda_j} = \sigma_{1\Lambda_j} \text{ yoki } \sigma_{\Lambda_j} = \sigma_{2\Lambda_j}, j=1,2,\dots,n \right\},$$

Faraz qilaylik  $\mu \in S(\Lambda, \Phi)$   $\Omega$  da aniqlangan  $\mu(\sigma) \triangleright$  shartni qanoatlantiruvchi qandaydir ehtimolli o'chov bo'lsin. ixtiyoriy  $\sigma \in \Omega$  katak uchun avloddan avlodga o'tish koeffisenti  $P_{\sigma_1\sigma_2, \sigma}$  ni quydagicha aniqlaymiz:



$$P_{\sigma_1\sigma_2,\sigma} = \left\{ \begin{array}{l} \frac{\mu(\sigma)}{\mu(\Omega(\Lambda, \hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)))} \text{ agar } \sigma = \sigma_1 \text{ yoki } \sigma = \sigma_2 \\ 0 \text{ qolgan hollar uchun} \end{array} \right\} \quad (1)$$

$S(\Lambda, \Phi)$  simpleksda harakat qiluvchi berilgan Avloddan avlodga o'tish (1) koeffisienti yordamida qurilgan kvadratik stoxastik operator  $V$  quydagicha aniqlanadi: ixtiyoriy  $\lambda \in S(\Lambda, \Phi)$  o'lchov uchun  $V\lambda = \lambda' \in S(\Lambda, \Phi)$  o'lchov ixtiyoriy katak  $\sigma \in \Omega$  uchun

$$\lambda'(\sigma) = \sum_{\sigma_1, \sigma_2 \in \Omega} P_{\sigma_1\sigma_2,\sigma} \lambda(\sigma_1) \lambda(\sigma_2) \quad (2)$$

tenglik orqali ifodalanadi.

Hech qanday qiyinchiliksiz avloddan avlodga o'tish koeffisienti quydagi shartlarni qanoatlantirishini ko'rish mumkin:

$$P_{\sigma_1\sigma_2,\sigma} \geq 0, \quad \sum_{\sigma \in \Omega} P_{\sigma_1\sigma_2,\sigma} = 1 \text{ yoki } P_{\sigma_1\sigma_2,\sigma} = P_{\sigma_2\sigma_1,\sigma} \text{ hamma } \sigma_1, \sigma_2, \sigma \in \Omega \text{ lar}$$

ushun.

Avloddan avlodga o'tish koeffisienti (2)  $(\Lambda, L)$  grafning strukturasi, allellar to'plami (spenlar)  $\Phi$  va  $\mu$  o'lchovning tanlanishiga bog'liq boladi.

Ta'rif. 1. Kvadratik operator (2) Volterro kvadratik operator deyiladi, agarda avloddan avlodga o'tish koeffisienti qo'ydagicha aniqlangan bo'lsa:

$$P_{\sigma_1\sigma_2,\sigma} = \left\{ \begin{array}{l} \neq 0, \text{ agar } \sigma \in \Omega(\Lambda, \hat{A}(\sigma_1, \sigma_2)) \\ 0 \text{ qolgan hollar uchun} \end{array} \right\} \quad (3)$$

**Teorema 1.** Agar  $|\Phi| > 1$  va  $|\Lambda| > 1$  bo'lganda (3.) kvadratik stoxastik operator Volterro tipidagi kvadratik stoxastik operator bo'lishi uchun  $(\Lambda, L)$  -graf bog'liq graf bo'lishi zarur va yetarlidir.

**Isbot.** Faraz qilaylik  $(\Lambda, L)$  -graf bog'liq graf bo'lsin: Agar  $A(\sigma_1, \sigma_2) = \Lambda$  bo'lsa, u holda o'z-o'zidan ma'lumki,  $\Omega(\Lambda, \tilde{A}(\sigma_1, \sigma_2)) = \{\sigma_1\}$  bo'ladi. Agar  $A(\sigma_1, \sigma_2) \neq \Lambda$  bo'lsa va  $A(\sigma_1, \sigma_2) \neq \emptyset$  bo'lsa, u holda  $\tilde{A}(\sigma_1, \sigma_2) = \Lambda$  bo'ladi, bu erdan  $\Omega(\Lambda, \tilde{A}(\sigma_1, \sigma_2)) = \{\sigma_1, \sigma_2\}$  ekanligi kelib chiqadi. oxirida, agar  $\tilde{A}(\sigma_1, \sigma_2) \neq \emptyset$  bo'lsa, u holda girafning bog'liqligidan  $\Omega(\Lambda, \tilde{A}(\sigma_1, \sigma_2)) = \{\sigma_1, \sigma_2\}$  ekanligi kelib chiqadi, bundan esa  $\sigma \neq \sigma_1, \sigma \neq \sigma_2$  lar uchun  $P_{\sigma_1\sigma_2,\sigma} = 0$  dir, yaniunga mos keluvchi kvadratik stoxastik operator Volterro tipidagi kvadratik stoxastik operator bo'lishi kelib chiqadi.

Endi faraz qilaylik kvadratik stoxastik operator Volterro tipidagi kvadratik stoxastik operator bo'lsin. U holda bo'ndan ixtiyoriy  $\sigma_1, \sigma_2$  lar uchun  $\mu$  o'lchov

musbat zichlikka ega bo'ladi va  $\Omega(\Lambda, \tilde{A}(\sigma_1, \sigma_2)) = \{\sigma_1, \sigma_2\}$  ekanligiga, bu esa  $(\Lambda, L)$  grafning bog'liqligini ko'rsatadi.

Teorema isbot bo'ldi.

$\sigma(x)$  larning mumkin bo'lgan qeymatlari va statika mexanika masalalaidan  $\Phi$  fazoning ko'rinishini mumkin qadar soddalashtirish yoki qeyinlashtirish mumkin. Biologik adabiyotlardan shu narsa ma'lumki, ixtiyoriy gen allellarning xal xil ko'rinishda mavjud bo'lishi mumkin. Populyatsiyada A allelni "normal" yoki "sakroq" deb ataluvchi tipdasisiga kengaytiramiz, qolgan formalari mutant  $\alpha$  allellar sifatida qaraladi

Faraz qilaylik  $|\Lambda| = n$  va  $\Phi = \{A, \alpha\}$  bo'lsin. Ixtiyoriy katak  $\sigma \in \Omega$  uchun  $\sigma$  katakdagi (yani "yutuqlar" soni) A allellar sonini  $n_A(\sigma)$  -orqali belgilaymiz va  $\mu_\alpha$  o'lchovni  $\Omega$  da xuddi binomiyal taqsimot kabi beramiz:

$$\mu_\alpha(\sigma) = p^{n_A(\sigma)} q^{n-n_A(\sigma)} \quad (1)$$

Bu yerda  $p \geq 0, q \geq 0, p + q = 1$  va  $p/q = \alpha$  dir. Agar  $p = q$  bo'lganda, ya'ni  $\alpha = 1$  bo'lganda, o'lchov  $\mu_1$   $\Omega$  da normal taqsimotga aylanadi. Faraz qilaylik  $(\Lambda, L)$ - grafning qirralari to'plami bo'sh to'plam bo'lsin, yani  $\Lambda$  tutash chiziqlarni ozida saqlamasin. Bu holda  $n_A(\sigma_1) = n_A(\sigma_2)$  shartni qanoatlantiruvchi  $\sigma_1$  va  $\sigma_2$  kataklarni solishtirib  $\Omega = \{\alpha'_1, \alpha'_2, \dots, \alpha'_k\}$  bu yerda  $\alpha_i - n_A(\cdot) = i$  shartni qanoatlantiruvchi kataklar to'plami kataklar fazosini hosil qilamiz. Bu yerda taqsimot quydagicha aniqlanadi:

$$V - \text{operator berilga bo'lsin } S(\Omega) = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_n) : x_i \geq 0, i=0, n, \sum_{i=1}^n x_i = 1\}$$

simpleksda harakat qiluvchi kvadratik stoxastik operator bo'lsin.

Agar Avloddan avlodga o'tish qoidalarini Mendel qoidalarini qanoatlantirsa, bu qoidalar yordamida qurilgan kvadratik operatorlar Mendel kvadratik operatorlar deyiladi. Bir nechta kvadratik operatorlar yordamida qurilgan modellarni qaraymiz.

Ko'riladigan misollarning hammasida  $p = q = 1/2$  bo'lib, unga mos keluvchi graf qirrasiz  $|\Lambda| = n$  grafdir.

Faraz qilaylik  $x_1, x_2$  va  $x_3$  chastotalar  $x = (x_1, x_2, x_3) \in S^2$ - mos ravishda AA, Aa, aa genotiplarning chastotalari bo'lsin.

$P_{AAAA,AA}$ -AAAA genotipli ota onadan bolasiga AA genotip o'tish ehtimolidir

$P_{AAAa,AA}$ -AAA  $\alpha$  genotipli ota onadan bolasiga AA genotip o'tish ehtimolidir

$P_{AAaa,AA}$ -AA  $\alpha \alpha$  genotipli ota onadan bolasiga AA genotip o'tish ehtimolidir

$P_{Aaaa,AA-A\alpha\alpha\alpha}$  genotipli ota onadan bolasiga AA genotip o'tish ehtimolidir

$P_{aaaa,AA-\alpha\alpha\alpha\alpha}$  genotipli ota onadan bolasiga AA genotip o'tish ehtimolidir

$$\text{va hakoZO } P_{\dots aa} = 1 - P_{\dots AA} - P_{\dots Aa}$$

Mendel tipidagi avloddan avlodga o'tishda Qiyin bo'lmagan hissoblashlarni bajarish uchun genotiplarni qisqartirish maqsadida AA, Aa, aa larni mos ravishda 1, 2, 3 sonlar orqali belgilaymiz va bunga mos keluvchi kvadratik stoxastik operator  $\{p_{ij,k}\}_{i,j,k=1}^3$  quydagi ko'rinishga keladi:

$$\begin{pmatrix} 1 & 1/4 & 0 & 1/2 & 0 & 0 \\ 0 & 1/2 & 0 & 1/2 & 1 & 1/2 \\ 0 & 1/4 & 1 & 0 & 0 & 1/2 \end{pmatrix}$$

Bu jadvaldagi qeymatlarni (2) ga quysak

$$\begin{cases} x'_1 = x_1^2 + x_1x_2 + 1/4x_2^2 \\ x'_2 = x_1x_2 + 1/2x_2^2 + 2x_1x_3 + x_2x_3 \\ x'_3 = 1/4x_2^2 + x_2x_3 + x_3^2 \end{cases}$$

ni olamiz va uni soddalashtirib

$$\begin{cases} x'_1 = (x_1 + 1/2x_2)^2 \\ x'_2 = 2(x_1 + 1/2x_2)(x_3 + 1/2x_2) \\ x'_3 = (x_3 + 1/2x_2)^2 \end{cases} \quad (2) \text{ ni hosil qilamiz.}$$

Avloddan avlodga o'tishning keying chastotasini aniqlash uchun (2) ga  $x_1, x_2, x_3$  larning o'rniga mos ravishda  $x'_1, x'_2, x'_3$  larni  $x''_1, x''_2, x''_3$  larning o'rniga  $x''_1, x''_2, x''_3$  larni quyesh zarur, yani quydagi tenglamani olamiz

$$\begin{cases} x''_1 = (x'_1 + 1/2x'_2)^2 \\ x''_2 = 2(x'_1 + 1/2x'_2)(x'_3 + 1/2x'_2) \\ x''_3 = (x'_3 + 1/2x'_2)^2 \end{cases}$$

va yana  $x'_1, x'_2, x'_3$  larning o'rniga (2)ning qiymatini qo'ysak

$$\begin{cases} x_1'' = ((x_1 + 1/2x_2)^2 + (x_1 + 1/2x_2)(x_3 + 1/2x_2))^2 \\ x_2'' = 2((x_1 + 1/2x_2)^2 + (x_1 + 1/2x_2)(x_3 + 1/2x_2)) \cdot \\ \cdot ((x_3 + 1/2x_2)^2 + (x_1 + 1/2x_2)(x_3 + 1/2x_2)) \\ x_3'' = ((x_3 + 1/2x_2)^2 + (x_1 + 1/2x_2)(x_3 + 1/2x_2))^2 \end{cases}$$

va bu formulani soddalashtirsak

$$\begin{cases} x_1'' = (x_1 + 1/2x_2)^2 \\ x_2'' = 2(x_1 + 1/2x_2)(x_3 + 1/2x_2) \quad \text{ga ega bo'lamiz.} \\ x_3'' = (x_3 + 1/2x_2)^2 \end{cases}$$

Bu yerdan ko'rinadiki avloddan avlodga o'tishning keyingi keladigan bosqichlaridagi genotip chastotalari xuddi birinchi bosqichdagi kabi bo'lar ekan. Bu xossani quydagi tasdiq ko'rinishida yozamiz.

Tasdiq 2. Avloddan avlodga o'tishda genotip chastotasining o'zgarmasligi bitta bosqichdan keyin amalga oshar ekan.

chastotalarining o'zgarmasligi Xardi- Vaynbergning qonunlarining uchunchi tasdig'dir.

(2) munosabatdan ko'rinadiki (0;1;0) no'qtaning asli bush to'plamdir, bundan kelib chiqadiki bu kvadratik stoxastik operator suyr'ektiv akslantirish emas.

#### Adabiyotlar

1. Колмогоров А.Н., Основные понятия теории вероятностей. М, 1936, 138 с.
2. Гардинер К.В. Стохастические методы естественных наук. М.: Мир. 1986,. 528 с.
3. Биллингслей П. Эргодическая теория и информация. М: Мир, 1969, 238 с. Макаров И.П. Дополнительные главы математического анализа.
4. М., Просвещение, 1968. -308 с.
5. Сарымсаков Т.А., Ганиходжаев Р.Н. Центральная предельная теорема для квадратичных цепей. // УзМЖ, 1991. №И, с.57-64.
6. Мейлиев Х.Ж., Гуломов О.Х. (Кар ГУ) Квадратичные стохастические операторы, построенные по биномиальным распределениям.
7. J.I. Abdullayev, R.N. G'anixo'jayev, M.H. Shermatov, O.I. Egamberdiyev. «Funksional analiz». Toshkent – Samarqand - 2009. -424 bet.

## XI ASR ADABIYOTIDA QO`LLANILGAN XALQ OG`ZAKI IJODI NAMUNALARI

*Sulurxan Raximova Djumaniyozovna*  
*O'zbekiston respublikasi IIB Xorazm*  
*akademik litseyi "Tillarni o'rganish"*  
*kafedrasi katta o'qituvchisi*  
*e-mail: [sulurrahimova@gmail.com](mailto:sulurrahimova@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o`rta asrlarning buyuk mutafakkiri Mahmud Qoshg`ariyning asarlarida ishlatilgan iboralar tahlil qilingan bo`lib, asosiy fokus etnografik atama va iboralarning evolyutsiyasi, genezisi hamda ularning qo`llanilish usullariga qaratilgan.

**Kalit so'zar:** Mahmud Koshg`ariy, urf-odat, etnografik atamalar, O`rta Osiyo, O`rta Osiyo xalqlari, marosim, sovchilik, xalq tabobati, muomala madaniyati.

**Аннотация.** В данной статье анализируются выражения, использованные в творчестве великого средневекового мыслителя Махмуда Кашгари, основное внимание уделяется эволюции, генезису этнографических терминов и выражений, а также способам их употребления.

**Ключевые слова:** Махмуд Кошгари, традиция, этнографические термины, Средняя Азия, народы Средней Азии, обряд, совчилик, народная медицина, культура лечения.

**Abstract.** In this article, the expressions used in the works of the great medieval thinker Mahmud Kashgari are analyzed, the main focus is on the evolution, genesis of ethnographic terms and expressions, and the methods of their use.

**Key words:** Mahmud Koshgari, tradition, ethnographic terms, Central Asia, Central Asian peoples, ceremony, sovchilik, folk medicine, treatment culture.

### Kirish (Introduction)

Badiiy asarlarning lingvistik va lingvomadaniy tahlili ko`p qirraligi, ko`p darajaliligi bilan bugungi davr mutaxassislarining diqqat markazida bo`lib turibdi. Shuning uchun ham badiiy asarlar va ularning badiiy matnlari lingvistik hamda lingvomadaniy tahlillarning haqiqiy ob`ektiga aylanib bormoqda. Badiiy matnning lingvomadaniy tahlilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tegishli jihatlarni o`zlashtirish, bilish va anglash kerak. Bunda atamalar va tushunchalar bilan ishlashga to`g`ri keladi. Madaniyat tushunchasi, lingvomadaniyat, madaniy seme, madaniy konnotatsiya, madaniy kelib chiqish, madaniy jihatdan belgilangan birlik, shuningdek, etnomadaniyat belgisi, dunyoning milliy manzarasi, etnografiya, folklor, she'riy milliy madaniyatning ramzi, madaniy - estetik belgisi va boshqa qirralariga e`tibor qaratish lozim bo`ladi`.

So`nggi yillarda o`zbek tiliga bo`lgan e`tibor tobora kuchayib bormoqda, bu esa o`zbek tilida sohalarga oid atamalar ya`ni terminlar bilan ishlashga ehtiyojni yuzaga keltirdi. O`z navbatida, terminning ma`nosi va mohiyati uning nomidan

kelib chiqadi. Demak, “Terminus” lotincha – “chegara”, “chek” soʻzlaridan olingan boʻlib, “chekli”, “chegaralangan” yaʼni, muayyan sohaga oid, aniqrogʻi – bir maʼnoli” degan maʼnoni anglatadi [1, 44].

Maʼlumki, har qanday soʻz tugʻilishida bir maʼnoli boʻladi, lekin kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida u koʻp maʼnoli soʻzga aylanib boradi. Lingvistik terminologiyaga bagʻishlangan ilmiy ishlarda har qanday termin soʻzdir, lekin har qanday soʻz termin boʻlolmaydi, degan fikr ilgari suriladi. Termin cheklanganligi, yaʼni bir maʼnoni ifodalaganligi tufayli maxsus kontekstda hamma vaqt oʻz maʼnosini saqlaydi. U emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Ohang yordamida terminning maʼnosi oʻzgaraydi [2, 264].

Oʻz navbatida atamalar tuzilishi, mazmuni, kelib chiqishi va qoʻllanilishiga koʻra, iqtisodiy, siyosiy, diniy, madaniy, tarixiy, falsafiy va etnografik atamalarga boʻlinadi. Atamashunoslik fani qadimdan rivojlangan boʻlib, mazkur fan asosan, qadimgi Rim va Gretsiyada taraqqiy etgan edi. Keyinchalik, aniqrogʻi, ilk va rivojlangan oʻrta asrlar davrida Sharq xalqlarida ham turli fanlarga oid atamalar amaliyotda keng qoʻllanila boshlandi. Mazkur jarayonda Muso al Xorazmiy (aniq fanlar), Abu Ali Ibn Sino (tibbiyot), Abu Rayhon Beruniy (tabiiy va ijtimoiy fanlar) hamda Mahmud Koshgʻariy (tarixiy va etnografik)lar muhim rol oʻynadi.

Jumladan, Markaziy Osiyoda rivojlangan oʻrta asrlarning yirik allomalaridan biri boʻlgan Mahmud Koshgʻariy oʻz davrining buyuk arboblardan boʻlib, etnografiya, lingvistika, xususan, turkiy tillarni oʻrganish sohasida mashhur boʻldi va tarixda oʻchmas iz qoldirdi.

XX asrning soʻnggi choragidan boshlab til birliklarini antropotsentrik tadqiq tamoyillari asosida oʻrganish dunyo tilshunosligining yetakchi vazifalariga aylandi. Shu qatorda oʻzbek tilidagi matnlarni lingvomadaniy soʻzlar yuzasidan tadqiq etish tilshunosligimizning dolzarb muommolaridan hisoblanmoqda. Dastlab, lingvomadaniy soʻzlarni oʻrganishni Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asaridagi turli soʻzlarning qoʻllanilishiga toʻxtalib oʻtmoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Maqolamizning asosini Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” (“Turkiy soʻzlar devoni”) asarida keltirilgan somatik komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyatini aniqlashga bagʻishladik. Bu asar Sharqiy Turkistondan Kasbiy dengizi boʻylarigacha boʻlgan ulkan hududda yashagan turkiy xalqlarning tili va madaniyatini oʻzida mujassamlashtirganligi bilan nihoyatda bebahodir.

Mahmud Qoshgʻariy toʻplagan maqollar juda qadimdan turkiy tillarda mavjud boʻlgan va ular turli urugʻ va qabila vakillarida yozib olingan. Eng qadimgi turkiy xalqlarning til xususiyatlarini oʻrganishda bu materiallar kata ahamiyat kasb etadi. Maqollar hozirgi oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida, til va meyorlarning oʻsishida alohida rol oʻynaydi. Maqolamiz uchun somatizmlar (tana aʼzolari) qatnashgan maqollarni “Devonu lugʻatit turk” tarkibidan ajratib oldik.

Allomaning eng mashhur asari hisoblangan “Devonu lugʻotit-turk”da ham bir qator atama va iboralar qoʻllanilgan boʻlib, ularning aksariyati hozirgi kunda ham baʼzi bir oʻzgarishlarga uchragan holda amaliyotda qoʻllanilib kelinmoqda. Mazkur

maqolada XI asrning buyuk ma'naviy merosi hisoblangan "Devonu lug'otit-turk"da qo'llanilgan ba'zi bir atama va iboralarga izoh berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida tabiblar qo'llagan dori va giyoh nomlariga e'tibor qaratib, turkiy xalqlap yashaydigan hududlarda o'sadigan o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlarning turlarini ifodalagan [3, 85].

Masalan, egit (za'farondan olingan dori), ibruk (sutdan tayyorlangan dori), urumday (zaharni kesish uchun ishlatiladigan tosh), ko'zluk, ko'zilduruk (ko'z shamollashida ishlatiladigan dori), egir (qorin og'rig'ida qo'llaniluvchi giyoh), churni (oshqozonni tozalovchi dori) va boshqalar. Mahmud Koshg'ariy o'z navbatida asarda milliy bayramlar masalasiga ham to'xtalib, unga shunday ta'rif bergan edi: "Bazram – odamlar orasida shodlik va kulgu. Gullar ochilgan joylarga bazram yer, ya'ni yoqimli yer demakdir. O'g'uzlar hayit kunini bazram deydilar, ya'ni shodlik va yoqimli kun" [4, 447].

Haqiqatdan ham bayramlar shunday ruhiy kayfiyatni vujudga keltiradiki, unda odamlar boshqa kunlardagiga nisbatan xursand va shod bo'ladilar. Shunday nuqtai nazardan qaraganda, bayram ma'lum bir vaqtdagi ideal hayot hisoblanadi [5, 178].

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida milliy urf-odatlardan biri bo'lgan sovchilik haqida qiziq ma'lumot beradi. Ma'lumki, sovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni VII–VIII asrlardagi O'rxun-Enasoy bitiklarida ham uchratish mumkin. Buyuk davlat arbobi, hukmdor Tunyuquqning bitiktoshida "sab" – "so'z" va "gap" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, "Irq bitigi (fol kitobi)"da esa "sab" – "so'z", "sabchi" – "xabarchi", "so'z keltiruvchi" ma'nosida qo'llanilgan. O'rta asrlarning mashhur tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariy ushbu atamani "sovchi-kelin va kuyov o'rtasida bir-biriga xabar eltuvchi" deb izohlagan [6, 122]. "Sabchi" degan so'zning ma'nosi "xabarlar yetkazib beruvchi odam". Olimning "Devoni-lug'atit turk" kitobida "sovchi" so'ziga ta'rif berib, uni "kuyov va kelin o'rtasida xabar yetkazuvchi odam" [7, 170], "Xudoning xabar yetkazuvchi insoni" ma'nolarida ishlatgan. Demak yangi oilaning paydo bo'lishida sovchilik udumi uzoq o'tmishda shakllanganligiga amin bo'lamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Xalq o'yinlari haqidagi yozma ma'lumotlarni XI asrda yashagan taniqli turkiyshunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari [8, 63]dan ham olish mumkin. Mazkur asarda keltirilgan ma'lumotlar xalq o'yinlarining yuzaga kelish tarixi va evolyusiyasini o'rganish imkonini beradi.

Jumladan, turkiy qavmlar orasida to'p bilan o'ynaladigan qadimiy o'yinlardan biri – "chavgon" keng rasm bo'lgan edi. "Devonu lug'otit turk"da bu o'yinga taalluqli bo'lgan quyidagi atamalar keltiriladi: "Tanguq"- chavgon o'yinida koptokni tortilgan o'tovdan o'tkazganga beriladigan ipak kiyimlik, "tasal"- chavgon o'yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq, "tobiq"- chavgon bilan uriladigan koptok, to'p [9, 360].

Kattalarning chavgon o'yini asosida "O't bandal" nomli bolalar o'yini yuzaga kelgan. "Bandal" so'zining ma'nosi "bosh qismi cho'qmoqli yog'och" deb izohlanadi. Odatda, bunday cho'qmoqli tayoq bilan chavgon o'yinida koptok urilgan. Bolalar esa bunday cho'qmoqli tayoqlarning uchini yondirib, kechki paytda bir-birlariga tayoqlar o'qalib o'ynaganlar, shu tufayli bir qadar xavfli bo'lgan, o'ta ehtiyotkorlikni talab qilgan bu o'yin "O't bandal" deb atalgan. O'yinda faqat o'g'il bolalar ishtirok etib, ularning qo'rqmas, jasur bo'lib ulg'ayishlari nazarda tutilgan. Qadimgi ajdodlarimiz bosqinchi qabilalar hujumini qaytarib, o'zlarini himoya qilishlari uchun jangu jadal sirlarini puxta egallashlari talab qilinardi. Shuning uchun qilichbozlik, nayzabozlik, o'q otish-tirandozlik sirlarini o'zlashtirish maqsadida turli tuman jangovar o'yinlarni ham o'ylab topganlar [10, 45].

Tirandozlik o'yini avvaldan hozirlab qo'yilgan maxsus joyda o'tkazilgan. Otish mashqlari uchun mo'ljallangan joy qadimgi turkiylar tilida "amachlik yer" deb atalgan. Merganlikka qiziqadigan yigitlar o'q-yoylarini olib o'sha maydonga yetib borishadi. O'q otiladigan joydan to nishongacha bo'lgan masofa "oqtam", ya'ni "bir o'q otarli masofadagi yer", nishon esa qadimgi turkiylar tilida "amach" deb atalgan [11, 86]. Nazarimizda, kamondan o'q otish musobaqasi, dastavval, yoshlarning jangovarlik xususiyatlarini qaror toptirish maqsadida o'tkazilgan. Keyinchalik ana shu muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan harbiy o'yin mashqidan "oltin qoboq" tipidagi tomoshaviy o'yinlar kelib chiqqan.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan oila, qarindoshlik va jamoaviy munosabatlardagi muloqot madaniyatida qo'llanilgan murojaat shakllari berilgan[12, 12].

Asarda kelishi	Asarda joylashgan o'rni	Ma'nosi
Aba	1 jild, 123 bet	ota yoki ona
Ana	1 jild, 119 bet,	ona,
Acha	1 jild, 114bet	katta opa,
Ata	1 jild, 114 bet	ota
Egetlik	1 jild, 267 bet	yanga, to'y kechasi kelinga hamroh ayol
Echa	1 jild, 114 bet	katta opa,
Eka	1 jild, 116 bet	katta opa
Og'a	1 jild, 116 bet,	tajribali, aqli ko'p yashagan odam,
Boldiz	1 jild, 426 bet.	xotinning singlisi
Baldir ug'ul	1 jild, 425 bet,	o'gay o'g'il
Baldir qiz	1 jild, 425 bet	o'gay qiz
Dada	3 jild, 239 bet.	dada, ota
Ichi	1 jild, 114 bet	yoshi katta aka
Eke	1 jild, 116 bet	Opa
Dede	3 jild, 239 bet.	dada, ota
Jurj –	3 jild, 13 bet	xotining o'g'il ukasi
Kis –	1 jild, 318 bet	Xotun
Namija –	1 jild, 417 bet.	ooja, qaynsinglisining eri
Tafaj –	3 jild,. 256 bet	amaki
Ini	1 jild, 418 bet.	kichik birodar, uka
Uma	1 jild, 118 bet	ona (tubutlar tilida)



Uma	1 jild, 118 bet	qo'noq, mehmon.
Uri –	1 jild, 115 bet	o'g'il bola
Xiz –	3 jild, 238 bet	qiz bola

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib shuni qayd etish mumkinki, zamonaviy o'zbek muloqot madaniyatida qo'llanilayotgan nomlar o'zining etimologiyasiga ko'ra qadimgi turkiylardan vorisiylik asosida ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelgan.

Buxoro vohasi o'zbeklarilarida kurashchi-polvonlarning g'olib chiqqanlariga nisbatan “yiqitmoq” so'zi o'rnida ba'zida “uchirmoq” atamasini qo'llashlari kuzatiladi. Masalan, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ushbu atama “uchirdi” shaklida kelib, aynan “yiqitmoq” ma'nosida kelgan. Voha o'zbeklari muloqot jarayonida erta tongdan kayfiyati bo'lmagan suhbatdoshga nisbatan “Ertalabdan bulutku”, “Ertalabki bulutday” kabi iboralar qo'llaniladi. Buni “Devonu lug'atit turk” asari orqali shunday izohlash mumkinki, qadimgi turkiylarga xos maqollarning biri “Tongda bulut o'rtansa, uyga yov kirganday bo'lur” qabilida keltiriladi.

Bu bilan tongdagi quyoshni to'sgan bulut xush ko'rilmaganligi va mazkur holat yaxshilik alomati emasligiga ishora qilingan. Bugungi kunda suhbatdoshga nisbatan bunday qiyoslash qadimgi turkiylarga xos qarashlar bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Shuningdek, ko'plab ota-ona va yaqin qarindoshlar yaxshi munosabatga undovchi maqollar ham keltiriladi. Jumladan, “Bar baqir, juq oltun (Bor mis (qadrsiz) yo'q oltin)”, ya'ni qo'lda bor narsa misdek qadrsiz, qo'lda bo'lmagan narsa oltindek qadrli. Ushbu maqol yaqinlar o'rtasida xo'rlanib yurgan, keyinchalik yo'qligida qadri bilinishi ma'nosida qo'llanilgan

Mazkur asarda muloqot madaniyatida xushmuomali va tavoze'li insonlarga nisbatan “Qutqi er” iborasi qo'llanganligini ko'rish mumkin. Ushbu manbada keltirilgan muloqot madaniyatiga oid ma'lumotlar dala tadqiqotlari materiallari bilan qiyosiy taqqoslanib o'rganilganda, so'zlashuv etiketlariga doir ko'plab manbaviy asoslar aniqlandi va ulardan dissertatsiyani yozish jarayonida keng foydalanildi.

#### Xulosa (Conclusion)

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, “Devonu lug'otit-turk”da qo'llanilgan atama va iboralarning aksariyati hozirgi kunda ham ba'zi bir o'zgarishlarga uchragan holda amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu atama va iboralar o'z navbatida milliy tilimizning sofligini ta'minlashda muhim roly o'ynashi bilan ahamiyatlidir

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zME, 2005. – B. 144.
2. Ashirova M. F. Atamalar haqida umumiy ma'lumot // Central Asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) google scholar issn:2181-2454 www.carjis.org volume 1 | issue 3 | 2021. – P. 264.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T. 1. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 85.

4. Bakirov B.U. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asaridagi maqollar xususida // DLT va TXMHJSTO' Samarqand, 2002.
5. Mazaev A. I. Prazdnik kak sotsialno–xudojestvennoe yavlenie. – M.: Nauka, 1978. – S. 178.
6. Ashirov A. A. O‘zbek xalqining qadimiy diniy e’tiqod va marosimlari.... – B. 122.
7. Khalmuratov B. R. ANALYSIS OF ETHNOECOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – S. 2081-2087.
8. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'atit turk.... – B. 170.
9. Yo‘ldoshev S. V. Farg‘ona vodiysi aholisining an’anaviy xalq o‘yinlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 45.
10. Narziev N. N. O‘zbeklarning an’anaviy muloqot madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B. 12.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЖАҲОН САВДО ТАШКИЛОТИГА АЪЗО БЎЛИШИДАН КУТИЛАЁТГАН НАТИЖАЛАР

*И.Д.Тораходжаева*

*ДБҚ Божхона институти*

*Қайта тайёрлаш ва малака ошириш факультети*

*“Махсус фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси*

**Аннотация.** Мақолада келажакдаги иқтисодий ўсишнинг асосий манбаи Жаҳон Савдо Ташкилотига Ўзбекистоннинг аъзо бўлиши эканлиги ва бу жараённинг барча ижобий ҳамда салбий оқибатлари ёритилган бўлиб, кутилаётган оқибатлар кенг баён қилинган. Шунингдек мақолада бу борадаги Ўзбекистоннинг позицияси ҳам акс этган.

**Калит сўзлар:** жаҳон савдо ташкилоти, антидемпинг процедуралар, тариф, энг қулай давлат режими, хизматлар бўйича Бош келишув (ГАЦ).

**Аннотация.** В статье освещены все положительные и отрицательные последствия присоединения Республики Узбекистан в Всемирную Торговую Организацию как основой источник будущего экономического роста страны. А также подробно описаны ожидаемые последствия с связи с членством в данную организацию.

**Ключевые слова:** всемирная торговая организация, антидемпинговые процедуры, тариф, режим наибольшего благоприятствования, Генеральное соглашение по услугам (ГАЦ).

**Annotation.** The article highlights all the positive and negative consequences of the Republic of Uzbekistan joining the World Trade Organization as the basis for the country's future economic growth. The expected consequences of membership in this organization are also described in detail.

**Key words:** world Trade Organization, anti-dumping procedures, tariff, most favored nation treatment, General Agreement on Services (GAS).

XXI асрга келиб дунё миқёсида ишлаб чиқаришнинг ривожланишига нисбатан жаҳон савдосининг ўсиши тезлашганлиги яққол кўзга ташланмоқда. Ўтган асрнинг 80-йилларида ривожланган давлатлардаги саноат ишлаб чиқарилиши ҳажми 171% ўсган холда экспорт ҳажми – 270%, импорт ҳажми эса 248% кўпайганлиги маълум. Бундай ҳолат мамлакатлар ўртасида ташқи савдо муносабатларининг жадал ривожланишига олиб келди.

Бугунги кунга келиб, ҳалқаро миқёсда мамлакатлараро савдонинг тез ривожланишига асосан қуйидаги омиллар таъсир кўрсатмоқда:

1. Бозор муносабатларига асосланган ишлаб чиқариш ривожланишига туртки бўлувчи жаҳон бозорининг шаклланиши;

2. Турли мамлакатларда айрим тармоқлар бир текис ривожланмаслиги энг тез ривожланувчи тармоқлар маҳсулотларини ташқи бозорда сотишга интилиши;

3. Ишлаб чиқариш кўламини кенгайтириш имконияти ички бозорнинг торлиги ишлаб чиқариш кўламини кенгайтириш имкониятини бермаслиги ҳар бир мамлакат тадбиркорлари ташқи бозорни эгаллаш учун кураш олиб бораётганлиги;

4. Фан ва техника тараққиёти натижасида ишлаб чиқаришда рўй берувчи ўзгаришлар халқаро миқёсда ихтисослашув ва кооперация ривожланишига олиб келганлиги оқибатида товар айирбошлашнинг ўсганлиги;

5. Давлат ўртасида товар айирбошлашнинг кўпайиши сингари омиллар давлатлараро халқаро савдонинг тез ўсишига олиб келди.

Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш ҳар бир мамлакат учун қатор имтиёзлар берилиши билан бирга халқаро иқтисодий муносабатларда маълум қийинчиликлар ҳам туғдиради, баъзи меъерий тартибларга риоя қилишни талаб этади.

Ўзбекистоннинг ЖСТ ва халқаро савдо тизимига интеграциялашуви барқарор ва олдиндан кўриш ҳамда режалаштириш имконини берадиган савдо тизимида ўзининг тараққиёт стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш имконини яратади.

ЖСТга аъзо бўлиш мамлакатимиз учун қуйидаги имкониятларни бериши мумкин:

Биринчидан, ташқи савдони қулай шароитда амалга ошириш учун имкониятлар яратилади, яъни қишлоқ хўжалик ва тўқимачилик маҳсулотлари ҳамда кимё саноати маҳсулотлари экспортини сезиларли даражада ошиш имконияти яратилади.

Иккинчидан, ЖСТга аъзо бўлган барча мамлакатлар ҳудудидан транспорт воситасида эркин ҳаракатланиш имконият яратилади.

Учинчидан, денгизга чиқишда ЖСТга аъзо мамлакатлар ҳудуди орқали эркин ҳаракатланиш учун шароитлар яратилади.

Тўртинчидан, халқнинг турмуш даражасини яхшилашга туртки берилади ҳамда инсонларга янада сифатли маҳсулот етказиб бериш имконияти вужудга келади.

Бешинчидан, меҳнат бандлигига ижобий таъсир этилади.

Олтинчидан, божхона, тариф, солиқ ва валюта сиёсатининг халқаро талаблар асосида иқтисодий интеграцияга тўсқинлик қилувчи муаммоларини бартараф этиш имконияти пайдо бўлади.

Шунингдек, катта ҳажмда чет эл инвестицияларини ва турли ишлаб чиқариш ҳамда аҳолининг юқори даражада иш билан бандлиги (ишлаб чиқариш ёки саноатнинг бошқа сердаромад соҳаларида)га эришилади. ЖСТга аъзо бўлиш билан ноқонуний сотилаётган сифатсиз маҳсулотлардан истеъмолчиларни ҳимоя қилиш учун шароит туғилади.

Ўзбекистон Республикасининг ЖСТга кириши сиёсий масала бўлиб, ушбу жараён фойда ва хавф таҳлилига асосланади.

Кўшилишдан қутилаётган ижобий натижалар қуйидагилар ҳисобланади:

1.Тадбиркорлик фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг ягона механизми яратилади.

2.Миллий иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш учун рағбатлантиришни яратиш орқали соғлом рақобат муҳитини шакллантирилади.

3.Давлатимизда бизнесни ҳимоя қилиш учун янада самарали чораларни қўллаш қобилияти (масалан, антидемпинг процедуралари ва бошқалар) ошади.

4.Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодиётига янада интеграциялашувига эришилади.

Қўшилишдан вужудга келиши мумкин бўлган салбий оқибатлар куйидагилар ҳисобланади:

1.Маиший хизмат кўрсатиш соҳасининг рақобатбардош эмаслиги туфайли қисқариши.

2.Қўшилиш оқибатларининг аниқ ҳисоб-китоблари мавжуд эмаслиги сабабли Ўзбекистон иқтисодиётидаги вазиятнинг олдиндан айтиб бўлмаслиги.

3.Хорижий ишлаб чиқарувчилар томонидан миллий товар бозорларини ўзлаштирилиши.

4.Аъзо бўлиш жараённинг юқори ижтимоий харажатларни вужудга келтирилиши.

5.Қўшилишдан кейин Ўзбекистонда бизнесни ҳимоя қилиш чоралари самарадорлигининг пасайиши.

Ўзбекистон ЖСТга аъзо бўлиш доирасида ички товарлар бозорига чиқиш бўйича икки асосий тамойилга амал қилган ҳолда музокаралар олиб борилиши аҳамият касб этади.

Биринчи тамойил. Аъзо бўлинган пайтдан бошлаб, Ўзбекистон ҳеч қандай модда бўйича жорий тарифнинг бож ставкаларини пасайтирмайди. Ўтиш даври тугагандан сўнг, Ўзбекистон томонидан қўлланиладиган импорт божлари ставкалари (мажбурийликнинг якуний даражаси) бошланғич даражадан бироз пастроқ бўлиши мумкин, аммо фақат иқтисодиётнинг ставкалари пасайтирилган ёки мавжуд бўлмаган тармоқларида маҳаллий ишлаб чиқарувчиларга сезиларли таъсир (Ўзбекистон Республикасида мавжуд бўлмаган ёки этарли миқдорда ишлаб чиқарилмаган) қилмайдиган тартибда амалга оширилади. Саноат хомашёси, ярим тайёр маҳсулотлар ёки давлатимиз томонидан хорижий товарларни (илғор технологик ускуналар) олишдан манфаатдор бўлган вазиятлар ҳам шулар жумласига киради.

Иккинчи тамойил. Ўзбекистоннинг ҳар қандай мажбурий бўлмаган тармоқ келишувига ёки ташаббусига қўшилиши имконияти.

ЖСТ келишувларида акс эттирилган мажбуриятларни бажарш мақсадида, ташқи савдо масалаларига таалуқли ташқи савдо сиёсати, ҳамда бир қатор меъёрий ҳужжатларга тегишли ўзгартиришлар киритишга тўғри келмоқда.

Давлатимизни ЖСТ га аъзо бўлишдаги яна бир муҳим омил бу хорижий хизматлар ва хизмат кўрсатувчи провайдерларнинг юртимиз бозорига кириш шартларини келишиш ҳисобланади. ЖСТга қўшилиш орқали Ўзбекистон Хизматлар савдоси бўйича Бош келишув (ГАЦ) доирасида ўз хизматлари бозорига киришнинг маълум даражасини кафолатлайдиган хизматлар бўйича аниқ мажбуриятлар рўйхати шаклида расмийлаштирилган мажбуриятларни олиши керак. ЖСТнинг барча аъзолари учун энг қулай давлат режими (ЭҚД) тамойилига мувофиқ (молиявий хизматлар (суғурта, банклар, қимматли қоғозлар), телекоммуникация ва ахборот технология хизматлари, транспорт хизматлари каби жабҳаларни келишиб олиш керак бўлади. Юқоридаги секторларда Ўзбекистоннинг музокаралар позицияси хорижий етказиб берувчиларнинг фаолиятига нисбатан энг кўп чекловларни ўз ичига олади.

Умуман олганда, Ўзбекистон мажбуриятлари рўйхати лойиҳасини ишлаб чиқишда қўлланиладиган ёндашувлар миллий хизматлар бозорига нормал рақобат муҳитини яратиш, хорижий инвестицияларни жалб қилиш ва шу билан бирга, юртимизнинг хизмат кўрсатувчи жабҳаларини ҳимоя қилишга қаратилган бўлиши жоиз. Буларга биринчи навбатда молиявий хизматлар (суғурта, банклар, қимматли қоғозлар), телекоммуникация ва ахборот технология хизматлари ҳамда транспорт хизматлари (айниқса ҳаво транспорти) киради. Айнан шу йўналишларда рақобатбардошлик масаласи ҳал қилинмаганлиги ҳеч кимга сир эмас.

Бир сўз билан айтганда, Жаҳон савдо ташкилоти кўп томонлама савдо тизимининг ҳуқуқий ва институтлашган ўзагидир. У давлатнинг ички савдо қонунчилиги ва қоидаларини ривожлантириш ва амалга ошириш услубларини ҳуқуматларга белгилаб, шартномавий мажбурият тамойилларини тақдим қилади. Шундай экан, ҳар бир давлат ушбу талабларни белгиланган талаблар асосида амалга ошириши ҳамда бу борада миллий манфаатлар устуворлигини сақлаб қолиши мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

### Адабиётлар

1. ЖСТ нинг “Савдрни соддалаштириш тўғрисидаги” 2017 йилдаги Келишуви (СУПТ).
2. ЖСТ нинг “Интеллектуал мулк ҳуқуқлари тўғрисида” ги Келишув (ИМХТБ) (ТРИПС).
3. ЖСТ нинг “Божхона қийматини аниқлаш тўғрисида” ги Келишуви (ГААТ VII 1994).
4. ЖСТ нинг “Товарларни жўнатишдан олдин текшириш бўйича” Келишуви.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 20 январдаги ЎРҚ-400-сонли «Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодексини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 2 июндаги Ўзбекистон Республикасининг жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш

жараёнини жадаллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги №181-сон Қарори.

7. “Ўзбекистон Республикасининг давлат чегараси орқали ўтказиш пунктларида чегара, божхона, санитария-карантин, фитосанитария ва ветеринария назоратини ташкил этиш тартибини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 18 ноябрдаги 912-сон қарори.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Божхона йиғимлари ставкаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2020 йил 9 ноябрдаги 700-сон қарори.
9. [www.wto.org](http://www.wto.org).
10. [www.wto.ru](http://www.wto.ru).

## MUNDARIJA

*B: Falsafa. Filologiya. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. San'atshunoslik.  
Sotsiologiya. Islomshunoslik. Iqtisod. Yuridik fanlari*

<b>Askarova D.A.G., Nazarov S.I., Razzokov H.Q.</b> Development of technology for cleaning wastewater generated in car washing pots and recycling it in the car washing process.....	2
<b>Мирзаева М.Қ.</b> Буюк ипак йўли транскомуникацияларининг ривожини - марказий осий мамлакатларининг ижтимоий тараққийети омилли.....	5
<b>Aziza To'xtaqulovna, Rustamova M.B.</b> Klassik uslubning paydo bo'lishi hamda bugungi kundagi ahamiyati.....	14
<b>Muzgorova G.M., Movlonova S.N.</b> Zamonaviy modada uslublarning o'rni.....	18
<b>Курбанова М.А., Рахматова Н.Ш., Бекмуратова М.Г.</b> Применение антипирена в технологии получения огнезащитных красок.....	23
<b>Sanayeva M.I.</b> General characteristics of teaching biology through interactive educational methods and technologies.....	29
<b>Shodmonqulova D., To'lqinova Z.A.</b> Boshlang'ich sinflarda ona tili darsining ingliz tili bilan integratsiyalashuvi.....	33
<b>Iminova I.M., Axmatohunova M.K., Mamajalilova M.M.</b> „Dekserich“ suyuq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar miqdorini yussx usulida aniqlash.....	37
<b>Toshbekov I.A., Suyunov R.U., Ibragimov F.M.</b> Respublikamiz hududlaridan keltirilgan asal namunalari tarkibidagi invert shakari miqdori va sifatini aniqlash natijalari.....	39
<b>Дўскулов В.М., Юнусов Х.Б.</b> Қорамолларни қон-паразитар касалликларидан асраш бугунги куннинг долзарб муаммоси.....	44
<b>Yadgarova O.I., Rashidova I.K.</b> Factors negatively affecting a child's psychology.....	49
<b>Yadgarova O.I., R.B. Sharipova</b> The importance of memory power when teaching english to students.....	52
<b>Rahmatova Z.M.</b> Oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi: asosiy komponentlari.....	56
<b>Qosimova F.X.</b> O'qituvchining nutq madaniyati.....	62
<b>Туремуратов Ш.Н., Сайпов А.А., Калилаев Т.Т.</b> Природные гипсовые вяжущие по южному аральскому морю.....	65
<b>Jammatova M.</b> Polifonik nutq roman badiiyatining asosi.....	72
<b>G'afurova N.Yu., Sobirova Sh.</b> Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan 3D tahrirlovchi dasturlarga qo'yiladigan talablar.....	77
<b>Sabariah Sulaiman, Toshpulatova Z.</b> Malay tilida tub fe'llardan yangi so'zlarning yasalishi va ularning ma'nosiga ko'ra qo'llanilishi.....	80
<b>Sharapova M.A., Xurramov O.Sh.</b> Ikkita belgili o'zgaruvchlar uchun binomiyal taqsimot yordamida qurilgan kvadratik stoxastik operatorlar.....	86
<b>Raximova S.Dj.</b> XI asr adabiyotida qo'llanilgan xalq og'zaki ijodi namunalari.....	91
<b>Торходжаева И.Д.</b> Ўзбекистон Республикасининг жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлишидан қутилаётган натижалар.....	97